


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



“Himoyaga ruhsat etildi”
Pedagogika fakulteti dekani
K. Boymirzayev

5111100- Musiqa ta'limi

Sadriddinov Sardorbekning

Mavzu: “Mutafakkir Alisher Navoiyning musiqiy qarashlari” mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Himoyaga tavsiya etildi”
Musiqa ta'lim kafedrasini mudiri

prof O. Azizov
“ ” 2018 y

BMI rahbari: T. Ortiqov

Mavzu: “Mutafakkir Alisher Navoiyning musiqiy qarashlari”

Reja:

Kirish

1-bob. Navoiyning musiqiy qarashlari

- 1.1. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs.
- 1.2. Navoiy lirikasida tamsil san’ati.
- 1.3. Musiqa va inson ruhiyati.
- 1.4. Alisher Navoiy – yetuk musiqashunos.(Alisher Navoiy qo’shiq haqida)

2- bob. Navoiy asarlarida komil inson tasviri

- 2.1. Navoiy asarlaridagi musiqiy atamalar.
- 2.2. Alisher Navoiy – xalqlar do’stligi kuychisi.
- 2.3. Musiqa darslarida Navoiy ijodiy merosini o’rganish.
- 2.4. Tajriba- sinov ishlari “Nazm va navo” badiiy-musiqiy kechasining stsenariyasi

Xulosa

Ilovalar

Foydalanilgan adabiyotlar



Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir

KIRISH

O'zbek xalqi ko'p ming yillik tarixi davomida erkin, baxtli va go'zal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan xilma-xil qadriyatlarni yaratdi. Qadimdan shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shilib, tobora rivojlanib bormoqda. Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash va ularning intellektual imkoniyatlarini kengaytirish, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatga bo'lgan intilishlarini yanada rivojlantirishda o'zbek xalqining boy madaniy merosi, buyuk siymolarga hurmat, milliy an'analarga sodiqlik, ular qoldirgan madaniy-ma'rifiy g'oyalarini ilgari surish maqsadida o'tkaziladigan ko'plab tadbirlar, anjumanlar e'tiborga sazovordir.

BMI ning dolzarbligi:

Yoshlar tarbiyasida milliy musiqa va adabiyotimizning ahamiyatiga chuqurroq to'xtaladigan bo'lsak, o'zbek xalqining ulug' shoiri Alisher Navoiyning bizgacha yetib kelgan bebaho asarlari va musiqa san'atining adabiyot bilan bog'liq jihatlariga e'tiborimizni qaratmog'imiz lozim. Alisher Navoiy musiqa ilmida shu qadar mahorat hosil qilgan edilarki, agar Farobiy hayot bo'lganlarida unga shogirdlik sirg'asini qulog'iga taqib olardi. Alisher Navoiy bastakor, xonanda va sozandalarni tarbiyalab yetishtirishga ham katta e'tibor berib, ularga g'amxo'rlik qilgan. "CHunonchi, yoshligida o'zining musiqaga bo'lgan qobiliyatini ko'rsata olgan ustod Qulmuhammadni avval Navoiyning o'zi tarbiyalab, so'ngra musiqa haqida "Asl ul-usul" asar yozgan. Mavlono Alishohga shogird qilib berib, uning bu sohaning nazariyasi va amaliyotiga mutaxassis qilib chiqardi".

BMI ning maqsadi:

1. Ma'naviy-estetik tarbiyaning mohiyatini o'rgatishda pedagogik asoslardan biri ajdodlarimizning milliy ijod namunalarini yoshlar ongiga ko'proq singdirib borishdan iboratdir. Milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz, milliy g'ururimiz, an'alarimiz, ajdodlarimiz qoldirgan serjilo milliy ohanglarning ijrosi uzoq o'tmishdagi buyuk daholarimizning qalb kechinmalari naqadar yuksakligini namoyon etadi.

2. Nazrat Navoiyning mumtoz adabiyot va musiqa san'atiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Xususan, shoirning g'azallari asosida kuylanadigan qo'shiqlar o'zbek musiqa san'atini yuksak cho'qqilarga olib chiqishga asos bo'lgan.
3. Musiqamadaniyati darslarida Alisher Navoiyning musiqiy olami haqida tushunchalar berib boorish.
4. Yuqori sinf o'quvchilariga Navoiy g'azallari bilan kuylanadigan asarlardan o'rgatib borish.

BMI ning nazariy- metodologik asosi:

Hazrat Navoiyning xalqimizning asriy an'analari, odob-axloqi, o'ziga xos turmush tarzi va qadriyatlarini ifodalagan ona tilimizning mazmun-mohiyati hamda qadr-qimmatini chuqur anglab yetgani, keyingi avlodlarga noyob durdona sifatida meros qoldirgani biz uchun faxrdir. Bu esa azaldan ota-bobolarimiz ma'rifatni, madaniyatni, san'atni insoniyat taraqqiyotinnig muhim omili sifatida ulug'lab, bu sohalar bilan muntazam shug'ullanib kelganligidan darak beradi.

BMIning ob'yekti va predmeti.

Namangan shahridagi 70 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi. Sinflardagi musiqa madaniyati fanini o'qitishda yangi loyiha usullarini qo'llash, tajribali pedagogik jamoadan esa ustoz- shogird an'alarini kuzatish.

Foydalanilgan metodlar.

Bitiruv malakaviy ish jarayonida quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalaniladi:

1. Tarixiy qiyosiy tahlil. Pedagogik tahlil. Tablitsalar Savol – javob. Test.

Suhbat. Pedagogik tajriba.

Nazariy va amaliy maqsadi:

Buyuk SHarq allomalari Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Najmiddin Kubro, Darvish Ali CHangiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz asarlaridagi bebaho fikrlar bugungi kunda yosh avlodning

ma'rifatli, ma'naviyati boy insonlar bo'lib kamol topishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Muammoga ilmiy yangilik asosida yondoshuv:

Ma'naviy barkamol inson tushunchasi keng qamrovli, serqirra tushuncha bo'lib, mohiyatan shaxs axloqi va odobini, ularda shakllangan ijobiy xislatlarni, jumladan, insonlarga, jamiyatga, Vatanga, oilaga, ota-onaga hamda ustozlarga nisbatan hurmat va ehtiromni qamrab oladi. Ma'naviyatning shakllanib, rivoj topishiga asos bo'ladigan ma'rifat insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilarni yaxshilik qilishga undaydi. Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy sohalar mutasaddilari va vakillari uchun o'ziga xos "M" formulasi, ya'ni **ma'rifat + ma'daniyat+ ma'naviyat+ mafkura** yaxlitligi yosh avlod tarbiyasida yuqori samara bermoqda.

Ma'rifat zamonga mos savodxonlik, bilim va tafakkur bo'lib, unga kuch-qudrat ato etadi. Ma'rifat kishilarni jaholatdan qutqaradi, yaxshi xulq-odob egasi bo'lishga, aql-idrok bilan yashashiga yordam beradi.

Ma'naviyat insonning ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xuniklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini shakllantiradigan, yuksak maqsad va g'oyalarni chuqur bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilishga o'rgatadigan tuyg'udir.

Madaniyat boshqalar bilan muloqat va muomalada namoyon bo'ladi. Ayni paytda, jamiyatning yaratuvchilik qobiliyatiga ega ekanligini anglatadi. O'z navbatida, madaniyat va ma'rifat kishining ma'naviy jihatdan to'kisligini ta'minlaydi.

BMI ning tuzilishi:

Men bitiruv ishimni kirish, 2 ta bob, 7 ta bo'lim, xulosa va tavsiyalardan iborat shaklda tuzib oldim.

Aniq maqsadga o'tadigan bo'lsak, aynan yuqoridagi ta'riflar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagan, ular ajdodlarimizdan meros bebaho hazinadir. O'zbek milliy she'riyatining asoschisi, o'z davrining buyuk arbobi Mir Alisher Navoiy badiiy

adabiyot, ma'rifiy-madaniy sohalar bilan birga, musiqa merosimizga ham ulkan hissa qo'shgan betakror ijodkor edi. Uning musiqa sohasida qoldirgan merosi musiqa madaniyati tarixida katta ahamiyatga egadir.

Ko'p Hijoz ohangi tuzma, yor ila bo'l barcha vaqt,
Ey Navoiy, gar Ajam bo'lsin maqoming, gar Iroq.

Ushbu bayt Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" asarida keltirilgan bo'lib, maqom tizimiga mansub nomlar: "Hijoz", "Ajam", "Iroq" diqqatingizni tortadi. Bu g'azaldagi musiqiylik naqshlari Navoiyning mohir san'atkor ekanligini isbotlab turadi. Bu ulug' shoir musiqani Xoja Yusuf Burhondan, ya'ni o'sha davrning atoqli musiqiy olimidan o'rganligining samarasidir.

Manbalarga e'tibor bersak, Navoiyning ud cholg'sida mohir ijrochi bo'lganligi qayd qilinganligini ko'ramiz. U adabiyot bilan musiqa uyg'unlashsa, go'zal bir san'at yuzaga kelishini yurakdan his etgan. Navoiy musiqa ilmining tuzilishini, ohanglar nafosatini va yana ko'pgina qirralarini o'rgangan. U, ayniqsa, musiqaning tub ildizlariga e'tibor berdi. Mumtoz kuy va ohanglarni qadrladi. SHoirning o'zi ham musiqa va uning amaliy tomonlaridan xabardor bo'lgani holda, maqom yo'llarida ko'pgina naqsh, peshrav amallar bog'lagan bastakor sifatida musiqa olimlarini lol qoldirdi. Uning she'rlari musiqiy va ravon bo'lganligiga sabab ham uning musiqani chuqur o'rganganligidir.

1-bob. Navoiyning musiqiy qarashlari

1.1. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs.

Musiqqa qalblardan sirqirab oqayotgan dard-alamlar, armonlar, quvonch va iztiroblar fig'onidir. Ko'z ko'ngil oynasi bo'lsa, musiqqa qalb toridir. Olamni musiqasiz tasavvur etmoq daraxtlarni bargsiz ko'rmoq kabidir. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "Ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdan oziq oladi". Musiqqa san'ati insonni to'g'rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka va komillikka eltadi.

O'zbek adabiy tilining asoschisi, mutafakkir olim, she'riyat mulkining sultoni davlat arbobi benazir zabonshunos, tengsiz faylasuf, betakror tarixchi yetuk huquqshunos olim ustoz Alisher Navoiy o'z o'rnida musiqqa olamining ham namoyondasidir.

Ma'lumki, qadimda ilmiy mashvaratdandan so'ng turli hududlardan kelgan o'z davrining mashhur hofiz va sozandalari o'z san'atlarini namoyish etishgan.

Hazrat Navoiyning ustoz va maslakdoshi Abdurahmon Jomiy ham "Risolai musiqiy" asarini Alisherbek sharafiga bitgan edi. Bundan tashqari, Navoiy "Majolisun-nafois" asarida musiqqa bilan shug'ullangan Xorazmlik Xo'ja Abudal Vofoiy, Jomiyning jiyani Mavlono Muhammad, Binoiy, Muhammad G'aribiy, Mavlono Shayxiy, Pahlavon Muhammad, Xo'ja Abdullo kabi san'atkorlarning musiqqa ilmiga qo'shgan hissasini ta'kidlab o'tganlar.

Alisherbekning o'zi esa musiqqa ilmini Xoja Yusuf Burhon degan shoir va musiqashunos hofizdan o'rgangandi. Bundan tashqari, Navoiy va Boyqarolar davlat rahbarlari darajasiga yetishgach, saroyda musiqqa bazmlari tashkil qilibgina qolmay, temuriy shahzodalarning musiqqa borasidagi bilimlarini yuksaltirishga ham e'tibor qaratishgan.

Alisher bolaligidan vaqtini ilm olishga sarflaydi. Ayniqsa, adabiyot va musiqqa ishtiyoqi baland edi. G'iyosiddinlar xonadonida she'r va musiqqa ilmi va fazl hukmron bo'lib, yosh Alisher mana shu musaffo muhitdan bahra olib o'sdi. Yetti-sakkiz

yoshlaridan musiqa bilan shug'ullanib, ilk saboqni yuqorida zikr etganimizdek, yaxshigina sozanda va shoir bo'lgan tog'asi Muhammad Ali G'aribiydan olgan. Keyin taniqli mutasavvif shoir Ahmad Jomiyning avlodlaridan bo'lgan, tasavvufda yuksak maqom sohibi bo'lish bilan birga, she'r va musiqa ilmini ham yaxshi bilgan, o'zi ham she'rlar yozib, musiqa bastalagan Xoja Yusuf Burxon qoshida musiqa ilmi noziklarini o'rganadi. "Majolis un - nafa'is"da "faqir musiqiy fanida aning shogirdimen" deb yozadi. Zotan, yosh Alisherda musiqa savodi bo'lgan ekan, u tobora yillar davomida musiqiy ilmini rivojlantirib boradi.

Buyuk mutafakkirning asarlarida musiqa yaratuvchilar bastakor, pardasoz, navosoz, nag'masoz, nag'mapardoz, ohangsoz, ijrochilar esa mug'anniy, mutrib, ohangnavoz, nag'maog'oz, nag'makash, ahli soz, ahli nag'ma singari atamalar ishlatilganiniyam qayd etib o'tmoq kerak. Shu kabi Navoiy o'ziga tutingan o'g'il sifatida asrab uyidan boshpana bergan Shohquli ham g'ijjakchi bo'lgani ma'lum. Shuningdek, Hofiz Qozoq, Ustod Sayid Ahmad, Ustod Husayn, Ustod Shayxiiy Noiy singari sozandalar ham Alisherbek xizmatida bo'lib, nafaqat Boyqaro saroyidagi, balki Navoiy hazratlarining uylaridagi bazmlardayam musiqa oqshomi tashkil qilardilar. Xondamir "Xulosat-ul axbor" asarida yozganidek, "Oliyhazrat amir Alisher musiqa ilmida ham shu qadar mahorat hosil qilgan edilarki, agar muallimi soniy Abu Nasr Forobiy hayot bo'lganlarida unga shogirdlik sirg'asini qulog'iga taqib olardi.

Alisherbekning o'zi esa musiqa ilmini Xoja Yusuf Burhon degan shoir va musiqashunos hofizdan o'rgangandi. Bundan tashqari, Navoiy va Boyqarolar davlat rahbarlari darajasiga yetishgach, saroyda musiqa bazmlari tashkil qilibgina qolmay, temuriy shahzodalarning musiqa borasidagi bilimlarini yuksaltirishga ham e'tibor qaratishgan.

Buyuk kelajak daholarimiz qoldirgan bebaho xazinalarga tayangandagina rivoj topadi. Boshqacha aytganda, ma'naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar. SHuning uchun ma'naviy barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masaladir. Yurtboshimizning quyidagi so'zlari orqali fikrimizga oydinlik

kiritishimiz mumkin: “Biz sog’lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog’lom kishi deganda faqat jismoniy sog’lomlikni emas, balki SHarqona axloq-odob va umumbashariy g’oyalari hamda ajdodlarimizning bebaho durdonalarini o’rganib, kamol topgan insonni tushunamiz”.

Bu fikrlardan ko’rinib turibdiki, ma’naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e’tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor me’yorlari sharqona axloq-odob bilan bevosita aloqadordir. Yuksak darajadagi ma’naviyatga ega inson fidoiylik, jasorat, mardlik, o’z xalqini sevishtir, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Binobarin, buyuk mutaffakir Alisher Navoiy kabi insonning insonligi, birinchi navbatda, uning axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanishini ta’kidlaydigan buyuk ajdodlarimizdan faxrlanib yashash har birimizning ezgu g’oyamizga aylanmog’i shartdir.

Ota-bobolarimizdan meros qolgan an’analarning barchasi ta’lim-tarbiyaning rivojiga qaratilgan bo’lib, uning zaminidagi vatanparvarlik shijoatini uqqan har bir kishining ma’naviy qobiliyati ortib boradi.

Vatanparvarlik g’oyalari millatimiz taraqqiyoti hamda kelajak avlodning ongi, ma’naviy dunyoqarashini yuksaltirishda muhim o’rin tutadi. Biz mustaqil davlat sifatida jahon minbariga chiqdik. Davlatimizni ma’naviy va ma’rifiy deb e’tirof etdik. Vatanparvarlik g’oyalari nafaqat siyosiy-ijtimoiy, balki madaniy ahamiyatga ega bo’lib, uning naqadar ma’suliyatli ekanini dildan his etmoq kerak.

Yuqoridagi fikrlar barobarida komil insonni tarbiyalashda Ahmad Yassaviy, Bohoviddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Zahiriddin Muhammad Bobur va Alisher Navoiylarning asos solgan bunyodkor g’oyalari o’ta xarakterlidir. O’zbek mumtoz adabiyotida yuksak iz qoldirgan mutafakkir shoir Hazrat Navoiyning muhabbat kuychisi ekanligi barchaga ma’lum. SHu xususda shoir tomonidan muhabbatni vatanparvarlik va ma’rifatparvarlikka undaydigan buyuk tuyg’u sifatida qaralganligini e’tirof etmoqchiman. Boisi yosh avlodni yuksak madaniyatli, estetik didi yuqori darajada rivojlangan barkamol insonlar etib tarbiyalashda Alisher

Navoiyning ma'rifatli, ilg'or g'oyalari beqiyosdir. Bunday imkoniyatni qay darajada aniq, to'g'ri va ravon bajarilishi ta'lim fidoyilarining shijoatiga bog'liq.

She'riyat mulkinging sultoni bo'lmish Alisher Navoiyning lirika sohasida yaratgan adabiy maktabi besh asrdan buyon xalqni maftun etib kelmoqda. SHoir ijodining asosiy mohiyatini bayon qiluvchi eng muhim asarlaridan biri "Xamsa"dir. Navoiyning buyuk shuhratiga sabab bo'lgan xislatlari ham "Xamsa"da yaqqol ko'rinadi. Asar shoirning beshta eng yirik asarini o'z ichiga olgan bo'lib, bular "Hayrat ul-abror", "Farhod va SHirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" nomli dostonlardir. "Xamsa" shoir ijodining eng yirik mahsuli sifatida ellik bir ming ikki yuz o'ttiz misradan iboratdir.

"Xamsa" Navoiy ijodining duri, gavhari hisoblanadi. U o'z asarlari syujetini xalqning yurak mehri bo'lgan xalq ijodidan olgan. Xususan, "Layli va Majnun", "Farhod va SHirin" sharq xalqlari orasida eng ko'p tarqalgan va xalq mehrini qozongan afsonalar edi. SHoir bu afsonalarni afsonalikdan chiqarib, o'z davri hayotining badiiy manzarasiga aylantirdi. SHuning uchun Navoiy:

Olooh, Olooh bu ne afsonadir?

Kim bu fasona desa, devonadur, – deb hukm chiqardi.

Tarixdan ma'lumki, fors zodagonlari asrlar davomida turk – o'zbek tili "qo'pol", bu tilda nozik fikr va tuyg'ularni ifodalab bo'lmaydi, deb zararli da'voni ilgari surib keldilar. Navoiy esa o'z xalqi uchun haqoratdan iborat bu o'rinsiz kamsitishlarga parvosiz qarab turolmadi. U o'z ona tilida she'r yozishni davlat ishi sifatida sharaf deb bildi. Navoiyning o'zbek tili uchun boshlagan kurashida "Xamsa" g'alabani ta'min etgan asosiy omil sanaladi. Mana, shoir "Saddi Iskandariy"da qanday mag'rur kuylaydi:

Bu til birla to nazm erur xalq ishi,
Yaqin qilmamish xalq sendek kishi.

Alisher Navoiy lirikada, badiiy va ilmiy nasrda o'ziga xos bir uslub yaratgan so'z san'atkoridir.

“Xamsa”da soʻz-obrazlar sanoqsiz durlar, gavhar, laʼl, yoqut xazinalariga oʻxshaydi. Alloma bu noyob injularni misralarning zar iplariga tizib, koʻzlarni quvontiradi.

“Xamsa”ni tashkil etgan ellik mingdan ortiq misralarni qofiyaning zarrin liboslari bilan bezash oson ish emas. Ammo soʻz mulkining dahosi boʻlgan Navoiy bu mushkul ishni zoʻr mahorat bilan bajargan. Uning har bir bayti toʻla qofiya bilan kuylanadi. Ayniqsa, qofiyalar radiflar bilan ketma-ket kelganda, misralar kuchli bir simfoniyadek jaranglaydi:

Vujudni oʻrtab otashnok ishq,
Solib oʻt olam ichra pok ishq.

Baqo mulkida sultonlikka yetti,
Haqiqat mulkida xonlikka yetdi.

(“Farhod va SHirin”)

Ogʻzima jon yetti davo qil menga,
Vaʼda necha emdi vafo qil menga.

Rangu safo qolmadi yafroq uza,
Etti oʻluklar kabi tufroq uza.

(“Hayrat ul-abror”)

“Xamsa” da qofiya masalalariga qisman aloqador, aslida maʼlum fikrni taʼkidlash, intonatsiya va garmoniya hosil etishdan iborat yana bir yoʻl borki, bu ham ayrim ahamiyat berishga loyiq ajoyib sanʼatdir. Bir soʻz ikki misrada ikki qatla taʼkidlanadi. Natijada “SHashmaqom” kuylaridek dilbar bir ohang paydo boʻladi:

Gʻam xanjari birla yora koʻngli,
Na yoraki, pora-pora koʻngli.

(“Layli va Majnun”)

Koʻnglini oʻyla shodmon topti,
Degaysen oʻlmish erdi, jon topti.

(“Sabʼai sayyor”)

Xuroson badandur, Hiri jon anga,
Hiri jon, badandur Xuroson anga.

(“Saddi Iskandariy”)

SHoirning bunday misralarida she'riyatni musiqadan ayiruvchi chegara deyarli yo'qoladi. Alloma asarlaridagi bu baytlarning o'qilishi emas, kuylanishi kerakligi sezilib turadi.

Ba'zilar bir jumlada yoxud bir baytda bir so'zning ikki marta takrorlanishini "so'zga kambag'allik", "fikriy qashshoqlik" deb hukm qiladilar. Bunday hukm, albatta, noto'g'ri! Gap faqat o'rinli takrorlashda, xolos. Bir so'zni ko'p marotaba takrorlash, Navoiy ijodida obrazni konkretlash, fikrni ravshan ifodalash, mazmunning u yoki bu jihatiga e'tibor qilinayotganligini ko'rsatish, shuning bilan birga, misralar uchun musiqaviylik, ohang yaratish vositasi bo'lib, bu allomaning eng sevgan yo'llaridan biri hisoblanadi.

Navoiyning dohiyona qalami bilan bunyodga kelgan "Xamsa"si ulkan ma'nolar xazinasi sifatida mangulikka daxldordir.

Bilimga chanqoq yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularni ma'naviy kamol toptirishda she'riyat bo'stonining sultoni, buyuk mutafakkir va davlat arbobi hazrat Mir Alisher Navoiyning asarlari, g'azallari, hikmatli so'zlarining ahamiyati kattadir. Kelajagimizning bo'lajak vorislarini har tomonlama ma'naviy kamol toptirish uchun ularning ma'naviy-ruhiy olamidan nafs balo, hoyu xavas yoki har xil buzg'unchi holatlarning oldini olishga erishish zarur. Alisher Navoiy orzu qilganidek bugungi kunda uning asarlari orqali o'quvchilarni jamiyatda ma'naviy barkamol inson sifatida shakllantiriladi.

Alisher Navoiy asarlarida abadiy baxtiyorlikni yuksak mahorat bilan qalamga olgan. Har bir asarida muhabbat va vafo, do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, mardlik, sahovat, qanoat, adolat, oliyjanoblik, yaxshilik kabi insoniy fazilatlarni ulug'lagan, yomonlik, zulm, zo'rlik, nohaqlik, e'tiqodsizlik, bevafolik, dilozorlik, hasad, riyo, kibr, yolg'on, ta'ma, hasislik singari illatlarni keskin tanqid qilgan. Insoniyat jamiyati mavjud ekan, bu ijobiy va salbiy xususiyatlar u yoki bu darajada yashaydi. Binobarin, Alisher Navoiy kabi ulug' shoirlarning ezgulikni ulug'lash, yovuzlikni qoralashga yo'naltirilgan asarlari hamma davrlarda

ham jamiyat manfaatlariga birdek xizmat qilaveradi. SHarqning barcha ulug' so'z san'atkorlari va mutafakkirlari kabi komil inson g'oyasi Alisher Navoiy ijodining ham asosini tashkil etadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, O'zbekiston ma'naviy siyosatining asosida ham komil insonni tarbiyalash g'oyasi yotadi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday fikrni ilgari surgan edilar: "...biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining utuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz".

Alisher Navoiyning "Xamsa", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Majolis un-nafois», «Lison ut-tayr» kabi asarlarida vatanparvarlik, sadoqatlilik tuyg'ulari juda keng ifoda etilgan. Bundan tashqari, Navoiy zolim, mustabid, nodon, maishatparast shoh va hukmdorlarni qoralab, ularga qarshi insonparvar, xalqparvar, adolatli shoh obrazini qo'yadi. SHu o'rinda misol uchun uning bir baytini keltirishimiz mumkin:

Odami ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

Mazkur bayt Navoiy ma'naviyati va insonpararligining markaziy nuqtasi desak, hech yanglishmaymiz. Navoiy sahovat va muruvvatda benazir inson bo'lgan. U o'z yashab turgan joylaridagi yer-suvlari, mol-mulklaridan kelgan daromadlarini to'laligicha hayriya ishlariga sarflagan.

Birgina Hirot shahrida o'zining jamg'armasi hisobidan qanchadan-qancha binolar, inshootlar barpo etgan. Uning bu qilgan ishlari bilan yaqindan tanishgan o'quvchilar qalbida Navoiyga bo'lgan hurmat ortadi. Ularning ongida mehnatsevarlik, mardlik, halollik, olijanoblik, yaxshilik, muhabbat va do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlar uyg'unlashib boradi.

Shu o'rinda 2-sinf o'qish darsligida berilgan "SHoir bilan shoh"¹ nomli hikoya matni bilan yaqindan tanishish jarayonida ham bu ulug' insonga bo'lgan hurmat yanada ortadi. Bu hikoya adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori,

¹ Абдуллаева Қ. ва бошқалар. Ўқиш китоби: 2-синф учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. Б. 33-34.

professor Abduqodir Hayitmetov qalamiga mansub bo'lib, ushbu matn bilan yaqindan tanishish jarayonida ham uning shoh Husayn Boyqaro bilan bolalikdan birga o'sganligini bilib oladilar. SHuningdek, shoh Husayn Boyqaro bolalar bilan "urush-urush" o'ynashi, otda chopishi, qilichbozlikka qiziqishini bilib olgan bo'lsalar, Alisher Navoiyning esa ko'p kitob o'qishi, she'rlar yozishi va ularni yod olishi bilan yaqindan tanishadilar.

Husayn Boyqaro katta bo'lgach, taxtga o'tirib, Xuroson mamlakatining shohi bo'lgan bo'lsa, Alisher Navoiy buyuk shoir bo'lib yetishdi. U el-yurt tinchligi haqida o'yladi. Odamlarga yaxshilik qildi. Ijodi jarayonida adolatni ulug'ladi. U "Navoiy" taxallus bilan jahonga tanildi.

Yoki shu darslikda berilgan "Alisher bilan bulbul" rivoyati orqali ham o'quvchilar Navoiyning "Navoiy" taxallusini olishiga turtki bo'lgan hayotiy rivoyat tanishadilar.

Barkamol insonni tarbiyalash bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan davrda ham Navoiy komil inson tushunchasiga alohida e'tibor berib, uni yuqori darajaga qo'ygan.

1.2. Navoiy lirikasida tamsil san'ati

Alisher Navoiy ijodi o'tmish o'zbek adabiyotining eng yuksak bosqichini tashkil qiladi. Ulug' shoir o'zigacha rivojlanib kelgan she'riyatni mavzu, g'oya, vazn va badiiy uslub jihatidan misli ko'rilmagan darajada takomillashtirdi. Alisher Navoiy lirikasining asosiy qahramoni komil insondir. U g'azallaridan birida shunday deb yozadi:

Ey, jamoling jilvasi mir'oti insu jon aro,
Lek o'lib ul jilva komil mazhari inson aro.²

Alisher Navoiyning butun shoirlilik mahorati ana shu "mazhari komil" insonni ulug'lashga, uning go'zallik olamini ko'rsatishga, ezgu fikr va tuyg'ularini madh etishga, zamon va zamon ahli, olam va odam haqidagi falsafiy mushohadalarini tasvirlashga bag'ishlangan. Alisher Navoiy ana shu ulug' va murakkab vazifani ado etar ekan, o'tmish mumtoz adabiyotida mavjud bo'lgan xilma-xil usul va vositalari ishga soladi. Ular ichida tamsil san'ati ham munosib o'rin egallaydi.

Tamsil so'zining ma'nosi *misol keltirish*dir. Bu san'atga asoslangan baytlarning birinchi misrasida muayyan kechinma yoki ruhiy holat tasvirlansa, ikkinchi misrada unga qaysidir jihatdan o'xshab ketadigan biror hayotiy hodisa yoki manzara misol tarzida keltiriladi.³ Boshqacha qilib aytganda, tamsil birinchi misrada ifodalangan ruhiy holat yoki kechinmani ikkinchi misrada *o'zgacha timsollar vositasi bilan qayta, ammo yanada aniqroq va ta'sirchanroq tasvirlash* san'atidir.

Tamsil san'ati Navoiy she'rlaridan juda erta o'rin egallagan. Bizga ma'lumki, Alisher Navoiyning Mavlono Lutfiy bilan uchrashuvi shoir endigina 14-15 yoshlarga kirgan paytda sodir bo'lgan. Yosh shoir Lutfiyning iltimosiga binoan quyidagi matla' bilan boshlanuvchi g'azalni o'qigan:

Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lgach quyosh.⁴

² Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 5-том. – Тошкент: Фан, 1991, Б.9.

³ Шайхзода М. Асарлар. 6 томлик. 4-том. - Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972, Б.210.

⁴ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1991, Б.208.

She'ni tinglagan Lutfiy kuchli hayajonga tushib, quyidagicha tahsin so'zlarini aytadi: "...agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu birgina g'azalga almashtirgan bo'lar edim". G'azal, jumladan, mazkur baytni alloma shoirning tahsiniga sazovor qilgan jihatlardan biri tamsil san'atidir. Baytning birinchi misrasida shoir lirik qahramonning hijronidagi g'amgin holatini tasvirlaydi: (Ma'shuqa) *yuzlarini yashirgan chog'da ko'zlarimdan har lahza yoshlar sochiladi*. SHoir lirik qahramonning ruhiy holatini kitobxon ko'z oldida yorqinroq gavdalantirish uchun ikkinchi misrada tabiatning bir lavhasini o'z holatiga misol qiladi: *Go'yoki quyosh botgach, yulduzlar paydo bo'lgani singari*.

Baytda tamsil san'ati yordamida tugal lirik manzara, kayfiyat va holat yuzaga kelgan. Baytning Mavlono Lutfiyi hayratga solgan jihati shundaki, unda inson ruhiyatining manzaralari tabiat manzaralariga monand qilib qo'yilgan: ma'shuqa yuzini berkitgach, lirik qahramon ko'zlaridan har lahza yoshlar sochiladi, bu kech kirishi bilan quyosh botib, samoda yulduzlar paydo bo'lishiga o'xshaydi. Tasvirning tahsinga sazavorligi shundaki, ikkinchi misrada yashirin tarzda ma'shuqa jamoli quyoshga, oshiq ko'z yoshlari yulduzlarga, ma'shuqaning yuzini oshiq ko'zidan pinhon qilishi esa quyosh botib, qorong'u tushishiga o'xshatilgan: ma'shuqaning quyoshdek chehrasi oshiq nazaridan pinhon bo'lgach, uning ko'zlariga olam qorong'u bo'lib, ko'zlaridan samodagi yulduzlar singari behisob ko'z yoshlari sochiladi.

G'azaldagi tamsil matla' bilan cheklangan emas: uchinchi bayt ham tamsil asosiga qurilgan:

Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,
Subhning bot-bot dami andoqki aylar mehr fosh.⁵

Birinchi misrada oshiqning ruhiy holati tasvirlangan, u oy yuzli ma'shuqaga bo'lgan ishqni ko'ksida pinhon tutishga intiladi, lekin dam-badam tortayotgan ohlar bu ishqni oshkor qilib qo'yadi: *Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini*.

⁵ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1991, Б.208.

Mumtoz adabiyotimizda “tong nafasi” degan tushuncha bor. SHoir bu iborani ikkinchi misrada “subh, ya’ni tongning dami” tarzida keltiradi. Ushbu tushunchaga ko’ra, tong ham inson singari nafas oladi va har nafas olganda olam asta-sekinlik bilan yorishib, nihoyat, quyosh o’z jamolini ko’rsatadi. Quyosh go’yoki tongning nafasidan chiqib kelgandek tuyuladi. Baytda oshiqning ohi tong nafasiga o’xshatilgan: uning damodam tortayotgan ohlaridan ul oyning o’tli ishqi namoyon bo’ladi, go’yoki tongning tez-tez nafas olishidan quyosh paydo bo’lganidek: *Subhning bot-bot dami andoqki aylar mehr fosh.*

SHoirning keyingi davr g’azallarida ham tamsil san’atining ko’plab mukammal namunalarini yaratilgan. “Aylagach” radifli mashhur g’azalida lirik qahramon ko’ngli va unga sanchilgan kiprik o’qlari tamsil yordamida shunday tasvirlanadi:

Tiyg’ ila paykonlaring yetti ko’ngil bo’lg’ach xarob,
Suv qo’yib tuxm etting ul kishvarni vayron aylagach.⁶

Ko’ngil xarob bo’lgach, – deydi shoir birinchi misrada, – *unga qiliching va kamon o’qlaring kelib sanchildi.* (Go’yoki) *O’sha mamlakatni vayron aylagach*, – deydi ikkinchi misrada, – *unga suv qo’yib, urug’ ekding.* Birinchi misrada xarob bo’lgan ko’ngil holati tasvirlanib, ikkinchi misrada u hayotiy bir hodisaga o’xshatilgan: o’tmish davrlarda bosqinchi shohlar biror mamlakatga bostirib kelar, shahar yoki qal’a taslim bo’lishni istamasa, uni butunlay vayron qilib, aholisi qilichdan o’tkazar, vayron qilingan shaharga bug’doy yoki arpa ekar edi. SHoir deydi, shohlarning mamlakatni vayron qilib, unga bug’doy va arpa ekkani kabi, (ey ma’shuqa,) sen ham ko’ngilimni xarob aylab, bu ham yetmagandek, unga tiyg’ ila paykonlaringni sanchib qo’yding. Tamsil san’atining shoirga xarob bo’lgan ko’ngil holatini mutaassir ifodalash uchun naqadar qo’l kelganini sezish qiyin emas.

Ma’shuqaning xatti tasvirlangan quyidagi baytda ham yetakchi san’at tamsil:

Sabzai xatting erur shirin labing atrofida,

⁶ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1991, Б.228.

Xayli to'tikim, hujum aylabturur shakkar topib.⁷

SHoirning maqsad-muddaosi ma'shuqaning shirin lablari ustidagi xatti, ya'ni mayin tukchalarini tasvirlash. Xat ko'kimtir rangda tovlanib turgani sababli sabzaga nisbat berilgan. Mumtoz adabiyotimiz xazinasidan sabza xat va shirin lab rang-barang usul va vositalar bilan tasvirlangan yuzlab baytlarni keltirish mumkin. Navoiy tasvirining fusunkorligi shundaki, ulug' shoir sabza xatni shirin lab bilan birgalikda tasvirlab, ikkinchi misrada shirin lab atrofidagi sabza xatni g'oyat rangin ifodalovchi hayotiy lavha keltiradi: *lab shakar, uning ustidagi mayin va ko'kimtir xatlar esa labning shakar ekanligidan xabar topib, unga hujum qilgan rangin to'tilardir.*

Alisher Navoiy tamsil uchun keltirgan vokea-hodisalar doirasi benihoya keng. U tabiat lavhalarinigina emas, xilma-xil xalq maqol va afsonalarini ham tamsil san'atining betakror namunalariga aylantirgan. Masalan:

O'qlaring ko'nglumga tushgach, kuydi ham ko'z, ham badan,
Kim kuyar ho'lu quruq', chun naysitong'a tushti o't.⁸

O'qlaring ko'nglimga sanchilgach, – deydi lirik qahramon, – *ko'zim ham, badanim ham ko'yib ketdi.* Ko'ngilga o'q sanchilgach, ko'z va badanning kuyishi anchagina mavhum holat. SHuning uchun shoir ikkinchi misrada bir mashhur xalq maqoliga murojaat etadi: *Axir qamishzorga o't tushsa, ho'lu quruq baravar yonadi-da!*

Tamsil san'atida birinchi misra bilan ikkinchi misra o'rtasida o'xshashlik bo'lishi bilan birga, timsollararo o'zaro aloqadorlik ham yuzaga keladi. SHE'riyat ilmida baytda o'zaro aloqador so'zlarning bo'lishi *tanosub san'ati* deyiladi. Mazkur baytda quyidagi tanosublar qatori bor: *o'q, ko'ngul, ko'z, badan* (1-misra); *ho'l, quruq, nayiston, o't* (2-misra). Birinchi va ikkinchi misradan o'rin olgan tanosublar o'zaro juftlik hosil qilib, bir-birining ma'nosini izohlab kelgan. Juft timsollarni yonma-yon qilib tizadigan bo'lsak, shunday manzara yuzaga keladi: *o'q – o't,*

⁷ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 6-том. – Тошкент: Фан, 1991, Б.50.

⁸ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 8-том. – Тошкент: Фан, 1991, Б.89.

ko'ngul – nayiston, ko'z – ho'l, badan – quruq. Ma'lum bo'ladiki, ma'shuqaning o'qlari oddiy o'q emas, balki o'tli o'qdir. U ko'ngilga tushgach, doim yoshlanib turuvchi ko'z ham, ma'shuqa hajrida quruq qamishga o'xshab qolgan badan ham kuyib, kulga aylanadi. Zero, qamishzorga o't tushsa, shoir baytda aytganiday, ho'lu quruq baravar yonadi.

Timsollararo o'zaro aloqadorlik xususiyati Navoiyning quyidagi mashhur baytida ham juda yaxshi aks etgan:

Jonda qo'yg'och naqdi ishqin, qildi ko'nglumni halok,
O'ltutur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.⁹

U, ya'ni ma'shuqa ishq xazinasini jonimga qo'ygach, ko'nglimni halok qildi, – deydi g'azal qahramoni birinchi misrada. Ikkinchi misrada u o'z fikrini quyidagi hodisa bilan isbotlaydi: *Axir, ganj yashirilgandan so'ng sulton mahramni o'ldiradi-da!* Ikkinchi misrada o'tmish zamonlarda keng tarqalgan bir odatga ishora qilingan: shohlar o'z xazinasini maxfiy joylarga yashirar, so'ng esa bu sirni birovga aytib qo'ymasin deb, mahram-mulozimlarni o'ldirtirib yuborar edi. Ushbu baytda ham ikki tanosub qatori mavjud: *jon, ishq, ko'ngil, ma'shuqa* (1-misra); *mahram, sulton, ganj, pinhon* (2-misra). Tushunchalar o'rtasidagi aloqadorlikda shunday fikr ifodalanganligini sezib olish qiyin emas: *ishq ganj-xazina bo'lsa, oshiqning joni ishq xazinasini yashirilgan joy, ko'ngil yashirin sirlar mahrami, ma'shuqa esa husn shohidir.*

Navoiyning “aylagach” radifli g'azalining matlasidagi asosiy tasviriy vosita ham tamsil va u bilan bog'liq tanosub san'atidir. Faqat shoir bu safar o'z qalamining sehrli qudrati hamda she'riy san'atlarning jozibasini ma'shuqa husnining betakror ta'rifiga xizmat qildiradi:

Husni ortar yuzda zulfin anbar afshon aylagach,
SHam' ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.¹⁰

Baytda shoir quyidagicha bir-biri bilan aloqador so'zlar zanjirini yaratgan: *husn, yuz, zulf, anbar* (1-misra); *sham', ravshan, tor, parishon* (2-misra). Birinchi va

⁹ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 8-том. – Тошкент: Фан, 1991, Б.98.

¹⁰ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 8-том. – Тошкент: Фан, 1991, Б.98.

ikkinchi misradagi o'zaro aloqador so'zlarni bir joyga keltirsak, quyidagicha ko'rinish kasb etadi: *yuz – sham', husn – ravshan, zulf (soch) – tor (ip), anbar – parishon*. Yuz – sham' juftligida sham' ma'shuqa yuzining istioraviy ifodasi bo'lsa ham, sham' deganda sham'ning o'zi emas, balki uning yonib turgan olovi nazarda tutilgan. Demak, ma'lum bo'ladiki, ma'shuqaning chehrasi sham' o'tiga, husni sham' o'tining shu'lasiga, sochlari esa sham'ning iplariga o'xshaydi. Ma'shuqa sham' o'ti singari munavvar chehrasi uzra sochlarini yoyib yuborganda husni, iplari to'zg'itib yuborilgan sham' shu'lasiga singari, ortib ketadi. Anbar – parishon juftligida tanosub qonuniyati bir oz o'zgacharoq tarzda yuzaga chiqadi. Bu ikki so'zning birdaniga ham sochga, ham sham' toriga aloqasi bor. Bu so'zlarni bir-biri bilan almashtirib qo'llash imkoniyati asosida ma'shuqaning sochlari va sham' torining ham anbarin, ham parishon ekanligini anglash mumkin: *anbarin soch, parishon soch; anbarin sham', parishon sham'*.

Ma'shuqa sochini o'tmish adabiyotida xushbo'y va parishon sifatlari bilan tasvirlanganligi ma'lum. SHam' iplarining ham parishon bo'lishini tushunish mumkin. Lekin sham'ning anbarafshon, ya'ni xushbo'y hid tarqatishini tasavvur qilish uchun Navoiy davridagi sham' tayyorlash jarayonini eslashga to'g'ri keladi. O'tmishda xonalar, jumladan, muazzam koshona va saroylar faqat sham' bilan yoritilgan. Katta va keng xonalarni yoritish uchun esa yuzlab shamlar yoqilgan. Endi ulardan tarqalgan badbo'y hid va tutunni tasavvur qiling. Ana shunday noxush holatdan qutulish uchun sham'ga mushk va anbar singari xushbo'y moddalarni qo'shib yuborilar, sham' yoqilganda esa atrofga badbo'y emas, hushbo'y hid taralar edi. Endi baytning mazmunini shunday bayon qilish mumkin: *SHam' piligi to'zg'itilganda, qanday ravshan nur sochsa, ma'shuqa sochlarini yuz uzra yoyib, anbarsochuvchilik qilganda, husni shunday ortib ketadi*.

Navoiy devonlaridan tamsil san'atining bu kabi betakror namunalarini juda ko'plab keltirish mumkin. Keltirilgan baytlarning o'zi ham Navoiy poetik qalamining qudrati, xususan, uning tamsil yaratish va tamsil imkoniyatlaridan foydalanish mahorati nechog'li yuksak va betakror ekanligini ko'rsatib turibdi.

1.3. Musiqa va inson ruhiyati

Kuy, ohang inson ruhidagi ilohiy kayfiyat ifodasidir. Musiqiy asarning g'oyasi, tasavvuri dastlab xayolda paydo bo'lib, so'ngra ijro tufayli sadolanish yo'li bilan jonlanadi, muayyan kuy shakliga aylanadi.

Musiqa shunchaki tovushlar majmuasi emas. Aksincha, parda va usullarning muvofiqlashgan tizimidir. Eng muhimi, kuy – bu yoqimli tovushlar vositasida ifodalangan ma'no. «Maqom» deb nomlanuvchi benazir musiqa shajarasi ham shu yo'sinda voyaga yetgan.

Falsafiy tarafdin maqom – musiqa vositasida dunyoni idroklash; yuksak estetik ahamiyatga molik hayotiy taassurotlar, tushunchalar, ramz va obrazlar olami; ruhning cheksiz go'zallik, mutanosiblik timsoli bo'lgan Vahdati Vujudga intilishi. Maqom ilmi advorning mukammal ko'rinishi. Maqom negizidagi bosh g'oya ma'naviy faollik, tovushlarda ifodalangan go'zallikdan baxramand bo'lish tuyg'ularini uyg'otishga qaratilgan.

Maqom san'atining an'anaviy hayot tarzi, axloq me'yorlari hamda musiqaning ma'naviy oziq, insonni kamolotga undaydigan dunyoqarashlardan kelib chiquvchi boy mentaliteti mavjud. El-yurt orasida dong taratgan sozandalar, o'z kasbining piru ustozlari bizda doim hurmat va izzatda bo'lib kelgan. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Feruz, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinodek olimu fuzalolar, Imom G'azzoliy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Boborahim Mashrab kabi dunyoviy-diniy ilm sohiblari san'atga yomon ko'z bilan qaramaganlar.

Musiqiy mantiq va tuzilish nuqtai nazaridan maqom o'z-o'zidan boshqariladigan ko'p qirrali va murakkab tizimdir. Qisqasi, maqom – so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan musiqiy tasavvur va g'oyalar dunyosi. Musiqa – tovushlar ta'sirida ma'lum ruhiy holatga kirish va uning nashidasida his-tuyg'ulardan zavq olish. Maqom nazmida she'r va musiqaning bir-biriga yaqin yo'ldosh, egizak san'at

turlari ekanini ko'ramiz. Mumtoz musiqa – maqom muxlisi bo'lish esa she'riyatga nisbatan qiziqishni oshiradi. Ta'sirchan ruhiy kuy va she'r uyg'unligidan olinadigan ma'naviy ozuqani boshqa biron his-tuyg'u lazzatiga qiyoslash qiyin. Bu haqda Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub»ida quyidagi hikmatlar bitilgan: “SHodlikni oshiruvchi mug'anniy (xonanda) g'amni ketkizuvchi mutribdir (sozanda). Ularning har ikkalasiga hol va dard ahli jon fido qilurlar. Soz chalinib, yoqimli xonish qilinganida, eshituvchining hayoti naqdi unga fido bo'lsa ne g'am. Ko'ngul quvvati yaxshi cholg'uchidan, ruh ozig'i yoqimli ovozdandur. Xushxon mutribdan dard ahlining o'ti tez bo'lur, agar go'zal bo'lsa, hol ahli o'rtasida qiyomat ko'char. Har bir sozandaning sozi dardliroq bo'larkan, uning chertishi yarali yurakka ta'sirliroq tegadi. Porloq yuzli mutrib halqumidan yoqimli qo'shiq taratib, hol ahlining kuygan bag'ridan tutun chiqaradi. Xush fe'l mutrib, agar fahm-farosatli ersa, odam ko'ngli tosh bo'lsa-da eriydi, unga tobe' bo'ladi, xususan, ham aytsa va ham chalsa, ko'ngul mulkiga qanday qo'zg'olonlar soladi”.

Musiqa va nutqning har biri o'z ichki qonunlariga ega bo'lgan ifoda vositalaridir. Musiqa – hissiyot olami, lekin ma'no-mazmuni so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan nafis san'at. SHuning uchun «nazm» va «navo» yonma-yon turuvchi, ma'no va zavq kashf etishda bir-birini to'ldiruvchi san'atlar sifatida e'tirof etilishi bejiz emas.

Alisher Navoiy – o'zbek klassik she'riyati va musiqasi hamda ularning maqom ijrochiligiga vobasta an'alarida buyuk siymodir. U maqomot yo'llarida, ayniqsa, Xorazm va Farg'ona-Toshkent maqomlarida she'rlari eng ko'p aytiladigan shoir. SHuning uchun bu diyorda «Navoiyxonlik» an'analari keng tarqalganligi, o'zbek tilida aytadigan har bir hofiz, avvalo, Navoiyparast bo'lib shakllanishi joizdir. Bu fikrning go'zal ta'rifi sifatida Ogahiyning quyidagi baytini keltirish mumkin:

Ogahiy, kim topgay erdi sozi nazmingdan navo,
Bahra gar yo'qtur Navoiyning navosidan sango.

SHarq she'riyatining buyuk namoyandalari Jaloliddin Rumi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalarning nazm guldastasi maqom matnlari sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Hofiz, Jomiy, Navoiy – she'riyat osmonining ma'ruf va mashhur yulduzlari, ularning asarlari esa g'azal mulkining bebaho durdonalari. SHu o'rinda Navoiyning «Aylasang» radifli mashhur g'azalidan ikki satrini keltirib o'tamiz:

Ey mug'anniy, yor bazmida navo soz aylasang,
Jon fidong bo'lsun, g'amim sharhidin og'oz aylasang.

Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”ga yozgan debochasida g'azallarining yozilgan vaqtini davrlashtiradi. Tabiatning to'rt fasliga monand inson umrini ham to'rt bosqichga bo'lgan, shundan kelib chiqqan holda she'rlarini to'rt devonga joylashtiradi. SHoirning bolalik va yoshlik yillarida yozilgan she'rlari dastlabki devon “g'aroyib us-sig'ar”dan o'rin olgan. Bu haqda shoir debochada shunday yozadi: “Tufuliyat avonikim, yetti-sakkiz yoshdin yigirma yoshgacha chenasa bo'lg'aykim, umr fusulining navbahori va hayot gulshanining shukufau gulzoridur, aning madhida “g'aroyib us-sig'ar” bila sarf qildim”. Lekin shu o'rinda navoiyshunos Hamid Sulaymonning shoir she'rlarining devonlariga joylashtirilishi ma'lum darajada shartlilik haqidagi fikrini e'tirof etish zarur.

Alisher Navoiyning ayni mana shu bolalik va yoshlik davrlarida yozilgan hamda ushbu devondan joy olgan muayyan g'azallari o'zining chuqur mazmuni, yuksak badiiyati bilan shoir ustozlarining yuksak bahosiga sazovor bo'lgan.

Ma'lumki Navoiy o'z davrining fozil kishilaridan biri Sayyid Hasan Ardasher vafotidan so'ng uning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan “Haloti Sayyid Hasan Ardasher” nomli asar yozadi. Asarda keltirilishicha, hijriy 860 (milodiy 1455-56) yillarda ustoz Navoiyning ayrim g'azallarini adabiy majlislarda katta zavq bilan o'qib yurgan. U quyidagi g'azal matllarini keltiradi:

Ul parivashkim, bo'lubmen zor-u sargardon anga,
Ishqidin olam manga hayron-u men hayron agna...

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag'rindun erur pargolalar...

Labing ko'rgach, iligim tishlaram har dam tahayyurdin,
Ajab holatki, tutmay bolni barmoq yalaydurmen.

Demak, bu uch g'azal shoirning 14-15 yoshlarida yaratilgan. g'azallar ravonligi, ohangdorligi, an'anaviy tasvirlar bilan birga o'ziga xos kashfiyot darajasiga ko'tarilgan poetik timsollar, tasviriy ifodalarga boyligi, ruhiy kechinmalari va holatini jonli va yorqin ifodalashi bilan diqqatga sazovordir. Ana shu bois Sayyid Hasan Ardasher e'tiborini tortgan, unga yuksak zavq-shavq bag'ishlagan bu g'azallar bugungi kunda Navoiy lirikasining eng yetuk namunalaridan hisoblanadi. Ikkinchi matlali g'azal "Yalla" dastasi tomonidan uzoq yillar davomida ijro etib kelindi. "Holoti Sayyid Ardasher" asarida shoir "...Faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutib erdi" deydi, bunda katta haqiqat bor edi. Manbalardan ma'lumki, Abulqosim Bobur vafotidan so'ng yosh Alisher Mashhadda qolib, o'qishni davom ettiradi. Madrasa hujrasida kasal bo'lib yotgan vaqtida, hujraga yosh mullavachchalar bilan birga yoshi ulug' bir odam kiradi. Bu zamonasining fozili shoiri SHayx Kamol Turbatiy edi. SHayx Kamol Turbatiy Navoiyning nomini eshitib, ta'zim bajo keltirgan holda orqasi bilan hujradan chiqadiki, bu ma'lumot ham 16 yoshli shoirning xalq orasida mashhurligidan darak beradi.

Navoiyning zamondoshlari e'tirofiga sazovor bo'lgan g'azallari ijodning dastlabki bosqichida yaratilgan bo'lib, shoirning ijodiy kamoloti va badiiy mahoratini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

SHoirning so'nggi g'azali haqidagi fikr ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov "So'nggi kun, so'nggi she'r" maqolasida Abdulmo'minxonning "Tom ut-tavorix" asarida Navoiy umrining so'nggi kunida yozilgan g'azali haqida so'z yuritgani, undan uch bayt keltirib, shoirning "vidolashuv g'azali" deya baholangani haqida ma'lumot bergan. Mana o'sha so'nggi g'azalning uch bayti:

Ne ko'zum yoroy, ul orazni manzur aylamak,
Ne tilim haddi oning otini mazkur aylamak.

Ya'ni ul ko'nglumda, bal jonimda dard o'ti erur,
Ko'z bila tilni aning ishida ma'zur aylamak.

Ey Navoiy, qil fido jong'akim, jon lof erur,
Oshiq o'zni ishq da'vosida mashhur aylamak.

Tasavvuf ruhidagi bu g'azalda shoir umr nihoyasiga yetib, o'z jonini yori (ya'ni Olloh) uchun fido etish vaqti kelganligi haqida so'zlaydi. Darhaqiqat, bu g'azal shoirning vidolashuv g'azali edi.

Navoiyning zamondoshlari va keyingi avlodlar tomonidan yuksak baholangan g'azallari shoirning she'riy iqtidori va mahoratini belgilovchi durdona asarlar ekanligi hech kimga sir emas.

Musiq va adabiyotning bir-biri bilan hamisha hamqadamligi, jaxon klassikalarining juda ko'pchiligi yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratish bilan bir qatorda musiq bilan ham shug'illanganlar, biron musiq asbobini chala bilganlar. Masalan, tojik klassik adabiyotining asoschisi Abu Abdullo Rudakiy ud chalishda, Abulqosim Firdavsiy chang chalishda, Nosir Xisrob g'ijjak chalishda shuxrat topganlar. Darvesh Alining ma'lumot berishcha Mirzo Ulug'bek, Xusain Boyqaro, Alisher Navoiy musiqada yangi yo'llar ixtiro qilganlar.

Navoiy musiqaga oid alohida asar bitmagan bo'lsa ham uning bu fikrlari tarqoq holda barcha asarlaridan joy topgan.

Ulug' adibning adabiyot va musiqaning birligi xaqidagi fikri "Saddi Iskandariy" dostonining kirish qismida doston syujetini yozishga kirishishdan oldin ifodalangan. SHoir "Xamsa" sining oxirgi dostonini yozishga kirishidan oldin o'z oldida turgan katta vazifani yakunlashga oshiqadi va anashu mas'uliyatli ish oldidan ilhomini jo'sh urdirish, o'zida badiiy tuyg'u uyg'otish uchun mug'anniyga murojaat qiladi. Navoiy bunda mug'anniyi "surudi harifona" chekishga, birgalikda ijod qilishga chaqiradi. Bu parchani diqqatga loyiq joyi shundaki, Navoiy mug'anniydan qo'shiksiz kuy chalishni iltimos qiladi. Kuy qo'shig'ini - shoir o'z dostonini ana shu kuy madadida tongda yaratishini aytadi.

Mug'anniy surudi xarifona chek,

Bir un birla tek turmagil, yona chek.

Deda, so'z meni ayla masti xarob,

Ki tongda so'z ayturiga kilgum shigob.

Navoiy mug'anniyga "surudi chek andoq baland" der ekan, musiqa yoki qo'shiq kuyining balandligini emas, balki musiqa shuxratining yuksakligini nazarda tutadi. Navoiy baddiy asarning shuxratini ana shu musiqaning "oliy ovozasi" - elga yetkazishini va musiqa orqali shariyat kishi ko'ngliga tez yetib borishi ta'sir o'tkazishini ta'kidlaydi.

SHoir "Maxbub ul-kulub"da musiqaning jozibali, sexrli tovushi haqida fikr yuritib, uning kayfiyatini ko'tarishda nechog'li ta'sir etishi, kundalik xayotda zarur ekanligini ta'kidlaganini ko'ramiz: "Xushxon mug'anniydin dard axlining o'ti tezdur, agar muloqiyati bo'lsa, xol ahliga rustoxezdur. Har mug'anniyki, dardmandonaroq nag'ma chekar, aning zaxmasi zaxmliq yurakka korcharroq tegar".

Navoiyning bu so'zlaridan ko'rinib turibdiki, u faqat yoqimli kuy va xushovoz xonandani yoqlamoqda. Demak faqat samimiyat, yuksak nafosat bilan yaratilgan kuygina kishi ruxining ozig'i bo'la oladi.

Navoiy musiqa va uning xayotdagi zarurati va mohiyatini tushuntirish bilan cheklanib qolmagan. U o'z davrinig musiqasiga arzigulik xissa qo'shgan.

Navoiy musiqaga bo'lgan qarashlari shubhasiz, uning adabiy ijodiga ta'sir etmasdan qolmadi. "Sabbai Sayyor"da u Diloromning Xorazm shoxi saroyidan qochib qutilishining sababini musiqaning sehrli ohangidan izlaydi. Uning moxirona chalgan changidan butun saroy axli hushdan ketadi. Natijada Dilorom xech qanday qarshiliksiz saroydan chiqib ketadi:

CHangni qo'lga olib ayladi sozi,
CHang bila nag'ma ayladi og'oz.
Nag'ma ul naba oshkor etdi, Kim
eshitgach shox o'zidan ketdi.

Alisher Navoiy adabiy merosi adabiyot va man'

Atning tarixi va taraqqiyotini o'rganishning muhim manbaidir.

1.4. Alisher Navoiy – yetuk musiqashunos.

(Alisher Navoiy qo'shiq haqida)

Qo'shiqlar mehnatkash xalq moddiy va ma'naviy hayotining hamma tomonlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular muayyan tarixiy taraqqiyotida insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o'ziga xos obrazlarda badiiy aks ettiradi. Qo'shiq – san'atning oliy turi bo'lgan she'riyatning qadimiy va keng tarqalgan turidir. Qo'shiq so'zini XI asrning allomasi Mahmud Qoshg'ariyning mashhur asari “Devonu lug'atit turk” kitobida ham uchratamiz. Olim *qo'shiq* – *qoshug'* so'zini arabcha “she'r”, “qasida”, “rajaz” deb tarjima qilgan.

SHuningdek, “qo'shiq” so'zi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida ham uchraydi. XII asrda yashab, ijod qilgan Mahmud Umar Zamahshariyning “Muqaddimatul - adab” lug'atida *qo'shiq* so'zining ma'nosi va unga *chi* qo'shilib, qo'shiqchi so'zining yasalishi aniq ko'rsatilgan. Bu lug'atda ham arabcha *she'r* so'zining o'zbekchasi (turkiychasi) qo'shiq deyilgan. Arabcha *qasida* so'zi *uzun qo'shiq* deb izohlangan.

Demak, qo'shiq o'zbeklarda keng ma'noda bo'lib, she'riyatni ifodalagan. “Qo'shiq” iborasining har vaqt farq etadigan ma'nosi borligini buyuk so'z ustasi Alisher Navoiyning “Mezonul avzon” asarida ko'rish mumkin. Asarda qo'shiq turlarining bir nechasidan ma'lumot beradi. SHoir *surud* (forscha) qo'shiq ma'nosida bo'lganiday *ayolg'u*, *lahn* va *turki* qo'shiq ma'nosini bildirganligini yozadi. “Farhod va SHirin” dostonida tasvirlanishicha, Farhodning boshiga tushganlarini xalq qo'shiqqa solib kuylaydi:

Ayolg'u barchag'a Farhod holi,
Surud ul xastai noshod holi ...
Qulog'iga yetushti bir hazin un,
Ki lahn aylar edi bir zori mahzun.

Alisher Navoiyning “Xazoyinul maoniy” asarida qo’shiq so’zi tor ma’noda uchraydi:

Xush ulki, bazmda oylar teparda arg’ushtak,
SHoh onda tanburni cholib, Navoiy desa qo’shiq.

Yozma adabiyot ta’siri bilan ma’lum ohang, kuyga moslash niyatida bizga ma’lum bo’lmagan shoirlar o’zlari yaratgan she’rlarni aruzga ham moslab yozishga intilganlar, chunki aruz vazni asrlar osha ishlana – ishlana musiqiylik kasb etgan. Alisher Navoiy nikoh to’yida aytiladigan “Yor - yor” haqida “Bag’oyat ta’sirli surud” deb, uni “chinka” deb atalishi, radif o’rniga “yor - yor” lafzi qo’llanilishini aytib misol keltiradi:

Qaysi chamandin esib keldi sabo, yor – yor,
Kim damidin tushti, o’t jonim aro, yor – yor.

Yurtimizning ayrim joylarida “chinka” so’zi hozirgacha qo’llanilib, u qiz to’yiga xabar qilayotganlarida “CHinkaga boringlar” deb chaqiriladi.

Qo’shiqlar ichida alohida o’rin tutgani “mustahzod” haqida fikr bayon qilib, unda to’la misradan so’ng, qisqartirilgan misra keltirishini izohlab va bu “xalq orasida bir surud bor ekandurkim hazaji musammani axrabi makfufi mahzun vaznida anga bayt boshlab bitib, uning misraidin so’ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib surud na’motiga rost keltururlar ermish va ani “mustahzod” derlar emish, andoqkim:

Ey husningga zarroti jahon ichra tajalli, mahzar sanga ashyo,
Sen lutf bila kavnu makon ichra mavli olam senga mavlo”.

(“Mezonul avzon”)

Umuman olganda Navoiy mustahzodlari o’sha davrda Hirotda mashhur bo’lgan.

“Qo’shiq” iborasining har vaqt farqlangan tor ma’nosi ham bo’lganligini shoirning “Mezonul avzon” asarida ko’rish mumkin. Xususan, Navoiy o’z asarida shunday deydi: “Yana qo’shiq” durkim, arg’ushtak usulida shoyi’dur va ba’zi advor kutubida ul usul zikr bo’libtur va ul surud a’robning teva surur xudilari vazni bila madidi musammani solimda voqe bo’lur, aning asli bu na’vdurkim, bayt:

Vahki ul oy hasratiyu dard dog’i firqati,
Ham erur jonimg’a o’tu, ham hayotim ofati”.

Alisher Navoiy o’z zamonida bu tur qo’shiqni boshqa vaznga solib kuylab aytilgani, yana o’sha asarda qayd etilganini aytadi.

Alisher Navoiygacha bo’lgan o’zbek shoirlari xalq she’riyatining ayrim turlari va ularning shakllariga asoslangan holda aruz vaznida she’rlar yaratganlar, bastakorlar ularga ohang bog’laganlar. Xalq iborasi bilan bular “qo’shiq” deb atalgan va ular barchaga yoqimli, manzur kuylar hisoblangan.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, qo’shiqlar o’zbeklarda keng ma’noda she’riyatni anglatgan, tor ma’noda ham u turlicha bo’lib, boy an’analarga ega bo’lgan. Ulug’ san’atkor shoirlarimiz muhabbat bilan o’rganib, avaylab o’z ijodlarida oziqlanganlar.

Asrlar, davrlar o’tishi bilan inson kamol topa borgan sari musiqa ilmi ham takomillashib bormoqda. Musiqa san’ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta’sir o’tkazib, uning umumiy, madaniy rivojida katta ahamiyatga ega bo’ladi. Fikrlar davomi Navoiy yashagan davrda ham barcha sohalar singari musiqa va san’at doimiy ravishda oldingi o’rinlarda edi.

XV asrning 2-yarmiga kelib Samarqand o’zining madaniy mavqeini Hirotga berib qo’ydi. Hirotida adabiyot va san’at, me’morchilik, rassomlik va musiqa yuksak darajada taraqqiyot topdi. Hirot madaniyatining peshvolari hamda eng yorqin yulduzlari bo’lib SHayx Abdurahmon Jomiy (Navoiy ta’biri bilan aytganda «Nuri

millat»), vaziri a'zam Alisher Navoiy va davlat rahbari sulton Husayn Boyqarolarning ijod maydoniga chiqishining o'zi chinakkam uyg'onish davri ekanligidan dalolat beradi.

Bunda Abdurahmon Jomiy fors-tojik tiliga, Navoiy va Boyqaro esa turkiy tilga intilgan. SHu bilan birga, zullissonaynlik – (ikki tillilik) muhitidagi mumtoz she'riyat va klassik musiqaning umumiy ma'naviyat maydoni sifatida qaror topganligi jahon tsivilizatsiyasi tarixining eng yorqin sahifalaridan biri bo'ldi. Samarqand va Hirotda Marog'iydan keyin ko'plab musiqashunoslar yetishib chiqqan. Ulardan eng ko'zga ko'ringan va muhimlari hamda musiqiy risolalari bizgacha yetib kelganlari orasida Abdurahmon Jomiy, Muhammad Binoiy, Zaynulobiddin Husayniylarni qayd etish lozim.

Bu mualliflar musiqiy risolalarining barchasi Alisher Navoiyga bag'ishlangandir. Buning ustiga nomlari zikr etilgan ulamolar Sulton Husayn Boyqaro va bosh vazir Alisher Navoiyning yaqin maslakdoshlari bo'lganlar. Ma'lumki, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiylar yoshligidan turli ilmlar qatorida musiqadan ham puxta bilim olganlar. Alisher Navoiy «Hamsat ul-mutahayyirin» risolasida qo'l ostidagi temuriyzodalarga musiqiy saboq berish uchun Hirotning to'rtta yetuk musiqashunosiga to'rtta risola yaratishni buyurganligi to'g'risida yozadi. Ulardan qoniqmagan Alisher Navoiy o'z ustozini Abdurahmon Jomiydan yangi bir asar bitishni iltimos qiladi va natijada oldingilaridan afzal risola dunyoga keladi.

Hirotda madaniy hayotning gullab-yashnagan davrining guvohi bo'lish qiyin emas edi. SHoir Navoiy musiqani g'oyat sevar va uning bilimdoni edi. Hatto u o'zining musiqiy asarlarini yaratar edi. Boburning «Boburnoma» asarida shoir Zayniddin Vasifiyning «Ajib voqealar» kitobida Hirotda yashab ijod etgan musiqachilar faoliyati keng tasvirlanadi. SHayx Noyi Xo'ja Abdulla, Marvarid Mirzo singari qo'shiqchi va sozandalar shular jumlasidandir. Husayn Bayqaro saroyida musiqachilar guruhi tuzilgan bo'lib, ularning rahbari Temurning nevarasi Mironshohning o'g'li Said Ahmad edi. Darvishali CHangiy o'z risolalarida Said

Ahmad tengi yo'q san'atkor, dunyoning barcha ulug' kishilarining bezagi deb atagan edi.

Navoiy o'z asarlarida shoir, sozandalar, hofizlar va raqqosalar ishtirokidagi ziyofatlar tasviriga katta e'tibor beradi. Navoiy asarlari g'oyat musiqiy, shoir xalq qo'shiqlarini yaxshi bilgan va sevgan edi. Navoiyning o'z yaqin qarindoshlarining ham musiqa ilmidan boxabar ekanliklaridan xabar berib, yetuk insonligi haqida «Majolis un nafois» asarida shunday deb yozadi: «Muhammad Ali G'aribiy ham faqirga tag'oyi bo'lur erdi, uning ovozi va musiqiy ilmi xo'b erdi». SHulardan ko'rinib turibdiki, Navoiy yashagan muhit bevosida musiqiy olam bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek adabiy tilining asoschisi, mutafakkir olim, she'riyat mulkingning sultoni, davlat arbobi, benazir zabonshunos, tengsiz faylasuf, betakror tarixchi, yetuk huquqshunos olim ustoz Navoiy o'z o'rnida musiqa olamining ham namoyandasidir.

Har bir xalqning ma'naviy ravnaqi, eng avvalo, uning umumbashariy madaniyatga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi. Ana shu nuqtai nazardan o'zbek xalqi ham boshqa O'rta Osiyo xalqlari bilan birgalikda jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. O'zbek zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar Imom Ismoil Buxoriy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqalar inson tafakkurini, diniy va dunyoviy fanlarni boyitishda alohida mavqega egadirlar.

O'zbekiston mutaqillikka erishgach, barcha san'at turlari qatori o'zbek musiqa san'atiga bo'lgan e'tibor davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Davlat ta'lim standartlarining joriy etilganligi musiqa madaniyati o'qituvchilarining zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Xususan, musiqa madaniyati darslari hamda darsdan tashqari tashkil etiladigan mashg'ulotlarda o'zbek milliy musiqa san'atiga hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning bebaho merosini chuqur o'rganish hamda uni yosh avlod ongida shakllantirish masalasiga keng o'rin berilgan.

SHu o'rinda SHarq xalqlarining ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan, musiqa san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Hazrati Navoiyning g'azallari millatimiz o'tmishiga hurmat uyg'otganini, naqadar buyuk ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini his etamiz. Mutafakkir Navoiyning g'azallari asosida yaratilgan qo'shiqlar ezgulikni, go'zallikni, eng muhimi, muhabbatni tarannum etishi orqali barkamol avlodni har tomonlama tarbiya topishida alohida e'tiborga sazovordir. Ulug' o'zbek shoiri, mutaffakkiri va jamoat arbobi Alisher Navoiy musiqa san'ati sohasida nihoyatda katta bilimga ega edi. U bir guruh yirik musiqachilarning iste'dodini namoyon bo'lishiga ko'maklashib, ularga rahnamolik qilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiyning ijodiy faoliyatini o'zining "Boburnoma" asarida katta hurmat bilan e'tirof etgan. Shoirning musiqaviy-estetik qarashlari esa "Saba'i sayyor", "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Mahbub ul-qulub", "Xamsa" va boshqa asarlarida aks etgan.

Alisher Navoiy nozik ta'b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, uni har tomonlama tahlil etardi. Hazrat musiqani insonning kamol topishi uchun asosiy vosita deb biladi. SHoir kishilarni o'z san'ati bilan maftun etuvchi, zavq-shavq bag'ishlovchi hofiz va qo'shiqchilarga, umuman, musiqa san'atiga munosabatini o'z asarlari orqali yorqin ifoda etadi. Uning betakror va tarbiyaviy ahamiyatga molik fikrlari zamirida musiqaning yoqimli sasi orqali kishi ijobiy tarbiya topmog'i lozimligi anglanadi. Navoiy shu o'rinda ham musiqani, ham o'zini xor qilgan tama'gir mug'anniylarni afsus-nadomat bilan tanqid qiladi. Xalq ijodiyotiga muhabbat qo'ygan Navoiy musiqaviy merosning mohiyatini teran aniqladi, o'z asarlarida bu san'at turining qudratli tarbiyaviy vosita ekanligini to'g'ri baholadi. U san'at ahlini xalq she'riyati va kuylarini o'rganishga, ulardan ta'lim olishga chaqirdi.

Zabardast shoir, mutafakkir, jamoat arbobi hazrat Alisher Navoiy temuriy sultonlardan bo'lmish Abulqosim Bobur hukmdorligi davrida tarbiya topib voyaga yetdi. Alisherning otasi G'iyosiddin yuqorida nomi zikr etilgan sultonning yaqin kishilaridan edi. G'iyosiddin fozil kishi bo'lganligi tufayli o'g'liga ilm berishga

astoydil kirishdi va buzrukvorning harakatlari zoe ketmadi. Yosh Alisherning nozik ta'bi va o'tkir zehni she'r aytishni o'rganishga qaratildi. Navoiyning zamondoshi Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "Yoshlik chog'laridayoq ikki til egasi, turkiy shevada sohibi fan, forsiyda sohibi fazl bo'ldi..." deb ushbu to'rtlikni keltiradi:

Turkiysin ko'rib qilurlar erdi tarku tavba ham,
Gar tirik bo'lsalar erdi Lutfiy birlan Kardariy.

Bovujudi forsi dar junbi she'ri komilash,
CHist ash'ori Zahiru kist bori Anvariyy?

Sulton Bobur iste'dodni parvarish qiluvchi podshoh edi. Ba'zan Alisher yozgan turkiycha yo forsiycha she'rlarni mutolaa qilar edi ham. Sulton tabiatning qudrati va shoir so'zining shirinligiga taajjublanar edi. Keyinchalik saltanat taxtiga Husayn Boyqaro kelgach, u Navoiyni o'ziga vazir etib tayinladi.

Navoiy o'z hayoti davrida nihoyatda faol ijodkor, uddaburon vazir sifatida umr kechirdi. O'sha davrda Xuroson va uning yon atrofida tez-tez bo'lib turadigan g'alayonlar, toju taxt kurashlari Navoiyning o'tkir zehni, siyosatdonlik bobidagi iqtidori, hattu harakatlari bilan bartaraf etib turilar edi. Ana shunday notinch va jo'shqin hayot tarzini kechirib, shunday nodir adabiy asarlar yaratib, ulkan meros qoldirishga har kimning ham qurbi yetmaydi.

Hazrat Navoiy faqat she'riyat sohasida daholikka erishibgina qolmay, balki musiqa sohasida ham mukammal ilmga ega bo'lganligi ko'pchilikka ma'lum. Manbalarda keltirilishicha, Navoiy musiqa haqidagi bilimlarni o'sha davrning atoqli musiqiy olimlaridan Xoja Yusuf Burxondan erinmay, zo'r ishtiyoq bilan o'rganadi. SHuningdek, Navoiyga musiqa tarixini o'rganishda Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Sayfuddin Urmaviy hamda Abdulqodir Morog'iyning musiqaga bag'ishlangan risolalarining ahamiyati katta bo'ldi deb ta'kidlaydi "Navoiy va uning musiqiy olami" asari mualliflari. SHoir musiqani insonning ruh ozug'i deb tushunadi va so'z ta'sirini oshiruvchi sehrli kuch deb qaraydi.

Manbalarda Navoiyning ud sozida mohir ijrochi bo'lganligini qayd etilgan. Navoiy Husayn Boyqaro saroyida faoliyat ko'rsatgan davrida ko'pgina olim, shoir va musiqachilarga homiylik qilgan. Ularga musiqa haqida risolalar yozishni tavsiya etgan. Natijada Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy", Al-Husayniyning "Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy" risolalari yaratilgan.

Navoiy o'z asarlarida musiqa ilmidan bexabar shoirlarni tanqid qiladi hamda shoirlar musiqa ilmidan xabardor bo'lishlari va biron-bir cholg'u sozida ijro eta olishlari lozimligini uqtiradi.

Navoiy g'azallarida musiqaga oid 50 dan ortiq atamalar uchraydiki, ularning ko'plarini o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, alhon, amal, advor, bo'd', jirmiy, jam', zil, iqo', mutrib, mustahal kabi atamalar ma'nolarini bo'lajak sozanda va xonandalarga musiqa mashg'ulotlari jarayonida tushuntirib o'tish bugungi kundagi har bir ustozning muhim vazifalaridan biriga aylanishi shart.

Musiqa tarixi, Musiqa nazariyasi, An'anaviy xonandalik fanlarida yuqorida sanab o'tilgan musiqiy atamalar haqida so'z ochib, talabalarga Navoiy zamonidagi musiqa va shoirning musiqaga bo'lgan e'tibori xususida ma'lumot berib, bahs-munazaralar uyushtirish yoshlarning alloma hayoti va ijodiga doir bilimlarini oshirishga ko'mak beradi. Masalan, musiqada "uvertyura" so'zi musiqali asarlarning kirish qismiga nisbatan ishlatiladi. Navoiy davrida esa "mustahal" so'zi ashuladan oldin keladigan cholg'u muqaddimasiga nisbatan ishlatilgan.

Yana "SHashmaqom"ning cholg'u qismi tugallangach, "nasr" (qo'shiq) qismi "saraxbor" ya'ni "xabar berish" nomli qo'shiq bilan boshlanadi. Navoiy davridagi bu ibora ham "uvertyura" so'zi bilan deyarli ma'nodoshdir. Musiqa amaliyotida eng ko'p ishlatiladigan atamalardan biri tovushqator yoki gamma bo'lib, Navoiy davrida bu so'zni "ja'm" deb atashgan. Yana "alhonni muxayyila" so'zi xayoliy, musiqaviy, tasviriy xarakterdagi kuylarga nisbatan qo'llangan. Bu atama hozirgi kundagi lirik qo'shiq yoki fantaziya iborasiga mos keladi.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelishimiz mumkin:

1. Alisher Navoiy bir yoki bir necha cholg'u sozlarida kuy ijro eta olgan.
2. Musiqa qonun-qoidalaridan yetarlicha bilimga ega bo'lgan.
3. Musiqaga nisbatan mehr-muhabbati kuchli bo'lgani bois bir necha sozanda va xonandalarga homiylik qilgan va ularni o'z tarbiyasiga olgan.

Bo'lajak xonanda, sozanda, musiqa pedagoglarini tayyorlash jarayonida An'anaviy xonandalik, Musiqa tarixi, Musiqa nazariyasi fanlarida Navoiy asarlarini targ'ib qilish har bir pedagogning muhim vazifalaridan biriga aylanmog'i lozim. Zero, yoshlarda Hazrat Navoiy kabi buyuk siymolarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'ularini singdirib borishimiz foydadan holi bo'lmaydi.

O'zbek xalq yozuvchisi Oybekning hayoti va ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning adabiy ijodi mavzu va g'oyalar olamiga ko'ra nihoyatda keng va rang-barangligini ko'ramiz. U yozuvchi sifatida o'zbek xalqi tarixining juda ko'p sahifalarini badiiy jonlantirishga erishdi. SHuningdek, adib o'zbek xalqi tarixini chuqur o'rgandi va uning eng muhim sahifalarini badiiy mujassamlashtirish ishtiyoqida yashadi. Jumladan, Alisher Navoiy siymosi qudratli bir ohangrabo singari uni o'ziga chorlar edi. Shuning uchun u uzoq yillar davomida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati xususida manbalar yig'ib, shular ustida tinimsiz ish olib borgan.

Oybek ijodiy faoliyati davomida Alisher Navoiy yashagan davrga e'tiborni qaratadi va o'zining ulug' shoir siymosini badiiy gavdalantirishi to'g'risida so'zlab, shunday yozgan: «O'z xalqimning taqdiri haqida o'ylab yurib, menda yangidan-yangi mavzular tug'ildi. Bolaligimdanoq asarlarini sevib o'qiganim o'zbek xalqining ulug' klassik shoiri Alisher Navoiy haqida asar yozishni ko'pdan beri orzu qilardim. Ulug' insonparvar inson obrazi o'rta asr tuni qorong'iligini yorituvchi yorug' mash'al kabi mening xayolimni egallab oldi. Men avvalo, «Navoiy» dostonimni yozdim. Navoiy obrazi mening ko'pgina lirik she'rlarimda ham gavdalandi»¹¹.

Xullas, Oybek 30-yillardan boshlab Alisher Navoiy hayoti va ijodi to'g'risida materiallar yig'a boshlagan. Ana shu materiallar asosida 1937 yilda «Navoiy» dostonini yaratadi. Ijodkor ushbu dostonida Navoiyning g'oyaviy qiyofasi,

¹¹ Ойбек. Бола Алишер. – Т.: Чўлпон, 1995. Б. 75-76.

ichki ruhiy kechinmalari, orzu-istaklarini ifodalagan bo'lsa-da, har jihatdan mukammal Alisher Navoiy obrazini «Navoiy» romanida yarata oldi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Oybek «Navoiy» dostonini e'lon qilgandan so'ng shu nomdagi romanini yozishga kirishadi. U bu haqda shunday yozadi: «Buyuk shoir Navoiy haqida materiallarni 1928 yildan yig'a boshlaganman. SHoirning o'lmas asarlarini va uning davrini o'rganib, Navoiyning hayoti va ijodi haqida talay tarixiy asarlar ham yozdim»¹².

Adibning rafiqasi Zarifa Saidnosirovaning ta'kidlashicha, 1942 yili sovuq uyda xira kerosin lampa shu'lasida, ba'zan och, ba'zan to'q holda o'tirib, «Navoiy» romanini tugatgan va bu roman unga katta shon-shuhrat keltirgan.

Oybek o'zining bu romanida Navoiy siymosi orqali o'zbek xalqining XV asrdagi tarixiga o'zbek yozuvchilari orasida birinchi bo'lib nazar tashladi. Xalqimizning o'sha davrlarda erishgan madaniyati, maktab va madrasalar hayoti, zahmatkash kishilarning og'ir turmushi, temuriylar o'rtasidagi o'zaro qonli mojarolar, janglar va h.k.larni yorqin gavdalantirdi. Asar hammaga – oddiy kitobxonlarga ham, yozuvchilar va munaqqidlarga ham manzur bo'ldi. Keyinchalik Oybek mazkur romanning bosh qismi bo'lmish «Bola Alisher» qissasini yaratdi.

Oybek «Navoiy» romanini va «Bola Alisher» asarlarini yozishda, ayniqsa, Alisher Navoiy obrazini yaratishda, uning dunyoqarashini belgilashda bir qator manbalarga suyaandi:

1. Tarixiy manbalar, chunonchi, Alisher Navoiyning zamondoshlari tomonidan va undan keyin yaratilgan manbalar (Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» («SHoirlar haqida tazkira»), Xondamirning «Makorim ul-axloq» («Yaxshi xulqlar»), «Xulosat ul-axbor» («Xabarlar xulosasi»), Zayniddin Vosifiyning «Badoyi ul-vaqoe» («Go'zal voqealar»), Boburning «Boburnoma» si va boshqalar.

2. Alisher Navoiy haqida xalq orasida ko'p tarqalgan ertak, hikoya, afsonalar.

¹² Ойбек. Бола Алишер. – Т.: Чўлпон, 1995. Б. 76.

Alisher Navoiy o'zining „Hayrat-ul-abror“, „Saddi Iskandariy“, „Mahbub-ul-qulub“ va boshqa asarlarida o'z pedagogik nazariyasining asosini tashkil etgan tashqi olam, inson va uning o'zligi, insoniy fazilat, jamiyat, insonparvarlik, xalqparvarlik haqidagi goyalarimi ifodaladi. Navoiy ilmiy-adabiy faoliyatida o'zidan oldin yashab o'tgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. Mirzo Ulugbek va boshqa buyuk mutafakkirlarning pedagogik nazariy fikrlar-ta'limotlarini davom ettirdi va boyitdi.

Navoiyning fikricha, olamning yaratilishidan maqsad insondir. Inson butun borliqning ko'rki va sharafidir. Insonning baxt-saodati uchun, uning kamoloti uchun kurash -Navoiy faoliyatida yetakchi g'oyadir.

*Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami,*

bayti Navoiy falsafiy qarashlarining tub manbaidir.

Navoiy insonni sevadi, uning haq-huquqdarini himoya qiladi, baxt-saodati uchun kurashadi. Navoiy mehnatkash, ijodkor, o'z kasbini mukammal egallagan, mehnati va zakovati bilan o'ziga ham, o'zgalarga ham manfaat yetkazgan insonni ulug'ladi".

Navoiyning fikricha, jamiyatdan, odamlardai ajralib, yakkalanib qolgan odam inson qatoriga kira olmaydi. U dunyodan bahra topa olmaydi, hayoti yemiriladi, inson shaxsi odamlar bilan muloqotda, odamlarning ruxiy, ma'naviy ta'siri natijasida shakllanadi.

Navoiyning pedagogik nazariyasida vatanparvarlik ulug'lanadi. Navoiy insonga muxabbat vatanga bo'lgan muhabbat bilan uzviylikda ekanligini aytadi. Navoiy xalqini, vatanini, uning go'zal tabiatini, ona tilini, madaniyatini, milliy kadriyatlarini sevgan odamni chin inson hisoblaydi. Zero, vatanga muhabbat, chin insoniylik eng go'zal fazilatdir. Navoiyning fikricha, vatanparvarlik faqat el-yurtni himoya qilishdan iborat bo'lmay, el-yurtni obod, farovon qilish uchun ham

kurashishdir. Shuning uchun ham insonni sevish, uning qadr-qimmatini ko'tarish, unda eng yaxshi fazilatlarni shakllantirish, rivojlantirish kerak.

Navoiy ta'lim-tarbiya haqida Navoiyning uqtirishicha, tarbiyaning maqsadi - yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib yetishtirishdir. Navoiy bolaning voyaga yetishishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga, tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi.

Navoiyning uqtirishicha, yosh bola yaxshi nima-yo'q yomon nimaligining farqiga bora olmaydi, chunki uning tushunish, fikrlash, muhokama qilish qobiliyati o'smagan bo'ladi. Shu sababli, u o'z xususiyatiga ko'ra, biror salbiy ta'sir natijasida yaramas, noto'g'ri yo'lga tushib ketishi mumkin. Demak, bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq darkor. Navoiy odob - odamning olijanob fazilatlaridan ekanligini aytib, odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, yoqimli bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kishilar uchun ikki yuzlamachilik, qo'pollik yotdir. Odobli odam doimo hurmat va izzatda bo'ladi, ota-ona, aka-uka, opa-singilni, do'stlarni hurmat-izzat qilmoq - har bir odobli kishining burchidir. Adab muhabbatga bezak va pardo beradi, adab va tavoze do'silik ko'zguna yarqiratadi, ikki tomondan yoruhlik yetkazadi. Shu sababdan ham har bir kishi yoqimli, nazokatli, ochiq chehrali va xushmuomala bo'lishi kerak.

"Har kimgaki, daxr ichida donolik erur,

Hilm ila anga majlis oroliq erur.",- deydi, ya'ni aqlli, dono kishi odobli, hayoli, kamtarin, shirin muomalali, xulqi yoqimli bo'ladi. Shirin so'zlik har bir kishi uchun eng yaxshi fazilatdir, Dahallik, qo'pollik eng yomon hislatdir.

Demak, ota-onalar o'z bolalarini chin insonga xos bo'lgan go'zal fazilatlar egasi qilib tarbiyalashlari kerak.

Navoiy o'z pedagogik qarashlarida karamlilik, sahovatlilik va himmatlilikni ham insoniy go'zal fazilat hisoblaydi, el-yurtga, muxtojlariga yordam berish eng yuqori karam ekanligini aytadi.

Navoiyning fikricha, yaxshilikni o'ziga maqsad qilib olgan odam baxtli bo'ladi. Bunday odamlar sahiy va himmatli bo'ladilar. „Sahiylik kishilar bog'ining

xosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o'lkasining to'liqlik daryosi, balki u to'liqlik daryoning asl gavxaridir"

Navoiy sahiylikni xalqga, davlatga faqat mol-mulk bilan emas, balki har bir kishi o'zida bo'lgan kuch, bilim bilan ma'naviy yordam berishi kerakligini aytadi.

Navoiyning fikricha, har bir inson shaxsi kishilar bilan muloqotda, ularning bir-birlariga bo'lgan ruhiy, ma'naviy ta'sir ko'rsatishlari natijasida shakllanadi, har bir odamning asosiy burchi - o'z farzandiga yaxshi tarbiya berish va odob o'rgatishdir.

Navoiy o'z pedagogik ta'limotida ilm-fanni o'rganishga ham alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, har bir odam ilm-fanlarni egallashi va rivojlantirib borishi kerak. Chunki, ilm tufayli:

Odam ziynati kamol o'lg'ay.

Navoiy aql va ilmni insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biri hisoblaydi. Shuning uchun ham g'ar bir insonning eng muhim burchi - ilm olishdir. Ammo ilmdan shaxsiy garaz va martaba - mansab uchun foydalanmaslik kerak. Ilmlarni egallashdan maqsad - xalq va jamiyatning farovonligi, xalqning baxt-saodati uchun xizmat qilishdir. Jamiyatning uzviy qismi - a'zosi bo'lgan har bir shaxs o'z xalqiga xizmat qilishi, foyda keltirishi zarur. U xalq uchun, vatan uchun foyda keltirar ekan, bu uning o'zi uchun ham foyda ekanligini unutmasligi lozim.

Nafyetkurmakka shior aylading,

O'zingga ul nafni yor aylading.

Nafing agar xalqga beshak durur.

Bilki, bu naf o'zingga ko'prak durur.

Navoiy dili, ko'zi, tili, so'zi, o'zi pok va sof bo'lgan, xalq hurmatiga munosib odamlarni ulug' inson deb biladi. Bunday odamni:

Oni bashar xaylining insoni bil,

Odamiylar odami oni bil. - deydi Navoiy.

Odamlar odamiysi - Navoiyning idealidir. Navoiy insonni millati, irqiy va diniy ayirmalaridan qat'iy nazar, bir-birlari bilan do'st, ahil bo'lib yashashga da'vat etadi.

Masalan qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san'atning turli sohalari bilan birga ta'lim- tarbiyani takomillashtirishga ham katta e'tibor bergan edi. U o'zining «Xamsa», «Mahbub-ul-qulub» kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarlari bo'lmish «Munojot», «Vaqfiya», «Majolisun nafois», «Muhokamatul- lug'atayn» kabilarda tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifodaladi.

Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim- tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy- axloqiy asarlarda esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etdi.

Alisher Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan deb biladi. U o'zining «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab ochib, o'z hisobidan mablag' ajratgan. Madrasada ta'lim olayotgan har bir talabadan ilmda qattiq intizomga rioya qilish talab etilgan.

Buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o'z davrida to'g'ri ifodalab hatto ta'lim tizimini belgilab beradi: Alisher Navoiy maktab, madrasalarda o'qish, olim, hunarmand, san'atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni talab etadi.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimu- mudarrislar hamda ustozu- murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarlbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil domlarni tanqid etadi va o'qituvchi ma'lumotli, o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarurligi ta'kidlab o'tadi.

2- bob. Navoiy asarlarida komil inson tasviri

2.1. Navoiy asarlaridagi musiqiy atamalar.

Navoiy asarlarida musiqaga oid yuzlab soʻzlar ishlatilgan. Ammo ularning maʼno doirasi faqat musiqa bilan cheklanmaydi. "Navo", "parda", "tor" "nagʻma", "doira" atamalari yana koʻp manolar anglatadi. SHuning uchun iboralardagi musiqani anglatgan ifodani boʻrtgirib ham, susaytirib ham boʻlmaydi. Ammo, musiqaga oid shunday atamalar borki, ular chuqur ilmiy asosda izohlanmasa, asar mazmunini tushunib yetish mushkul.

Navoiy risolalarida rud, shohrud, barbat, ud, chang, nay, tanbur, sagona, rubob, qoʻbuz, karnay, egri, daf, nagʻora, koʻs, jalojil va boshka soʻzlar tilga olinadi. Navoiy asarlarining izohlari bu jihatdan birmuncha aniqlik kiritishga muhtoj. Masalan, rud, barbat, ud soʻzlarini olaylik. Rud va barbat Navoiy zamonida ishlatilgani haqida aniq maʼlumotlar yoʻk. Navoiy asarlarida ular sosoniylar davriga mansub tarixiy soʻzlar sifatida namoyon boʻladi. Taʼriflarga koʻra, rud – dastasi kalta torli cholgʻu, barbad – shunday shaklda boʻligan.

Ud soʻzi eramizning boshlarida Oʻrta Osiyodan Xitoyga, keyinchalik esa Yevropaga tarqatilganligi xaqida aniq dalillar mavjud. Xitoyda pipa, Yevropada lyutnya, Ispaniyada gitara deb nomlanganligi ham maʼlum.

Bundan tashqari, cholgʻular muayyan ijrochilik anʼanalari bilan chambarchas bogʻliq. Qoʻbuz turk dostonchiligi, ud dunyoviy xarakterdagi professional musiqa, nay va rubob koʻproq diniy-tasavvuf kuylar ramzi boʻlib kelgan. "SHashmaqom"da esa tanbur yetakchi soʻz boʻlib gavdalanadi. "SHashmaqom"ning kaliti tanburda iborasi bejiz aytilmagan. Sozlarni oʻrganishda ularning anʼanalarga bogʻliq tomonlarini inobatta olmasdan ilojimiz yoʻq. Sozlarning simbolikasi koʻpincha shu anʼanalardan kelib chikadi. CHolgʻu asboblarining majoziy maʼnolari tavsifi, ayniqsa, "Lison ut-tayr" asaridan keng oʻrin olgan. Bu murakkab mavzu alohida tadqiq etishni talab qiladi.

Navoiy asarlaridan Xuroson va Movarounnahr xalqlari musiqiy merosiga oid shakl va janrlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar topish mumkin. Tarona, g'azal, qavl, naqsh, suvora, savt, kor, amal, peshrav, rexta, miyatayn, samo', navha, changa, qo'shiq, tuyuq va boshqa janrlar haqidagi ma'lumotlar o'sha davr musiqa muhitini tushunishda muhim omildir.

Navoiy haqida qancha gapirsak ham oz. Oradan 573 yil o'tgan bo'lsa ham, Navoiy hamon tirik, u o'zining o'lmas nodir asarlari bilan barcha tarix zarvaraqlaridan o'z o'rnini mustahkam egallagan, hamma har kun, har qaerda Navoiy g'azallarini kuylaydi, yod oladi, o'qiydi, o'rganadi. Shuning o'zi ham ustozga katta ehtirom desak yanglishmaymiz.

Navoiy ko'p shoh asarlar yaratdi va ularda ilg'or g'oyalarni ilgari surdi. Uning ilm-fan, ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari ham ana shu asarlarida bayon qilingan. Uning bu haqdagi fikrlari buyuk asari "Xamsa"da mukammal berilgan. Bundan besh yuz yillar ilgari Amir Temur boshchiligidagi feodal davlatning so'nggi davrida yashagan Navoiy Temur vafotidan keyin uning avlodlari o'rtasidagi taxt uchun bo'lgan o'zaro kurashlar natijasida xalq boshiga tushgan katta musibatlarni, Temur avlodlari o'rtasidagi o'zaro fisqu fasodlar tufayli xalq tortgan jabr-jafolarni xalq bilan birga o'z boshidan kechirdi, xalq uchun jon kuydirdi.

SHunday bir davrda yashagan insonparvar shoir kishilikni aql-idrokka, xulq-odobga, ilm-ma'rifatga undadi. U xalqparvar shoir sifatida urushni qoraladi, urishqoqliklari bilan xalq ustiga jabr-zulm yog'dirayotganlarga nafrat bilan qaradi:

Odami ersang, demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami, –

deb xitob qilgan edi Alisher Navoiy.

Alisher Navoiy shoh asarlar yaratish bilan birga, bolalar ta'lim-tarbiyasi va o'qituvchilar haqida ham ko'p qimmatli fikrlarni aytgan. Navoiy maktab va madrasalarni ko'paytirib, bilimdon, dono, insofli o'qituvchilarni ko'proq jalb qilish kerakligini uqtirdi. Husayn Boyqaroga yozgan xatlarining birida: "Har masjidning imomig'a tayin qilsalarkim, ul mahalla ahlining o'g'il-ushog'iga maktab tutib noma

o'qisalar", –deb ta'lim-tarbiya muassasalari ochish va bolalarga bilim berishni talab qilgan edi.

Shoirning ilm-fanni, ta'lim-tarbiyani yuksak qadrlagani va ulug'laganini uning o'z faoliyatidan ham, yozgan asarlaridan ham yaqqol ko'rish mumkin. Navoiy o'z asarlarining qahramonlarini ilm va fanga intiluvchi, ta'lim-tarbiya olishga ishtiyoqi zo'r, san'at va hunarda mohirlikka erishish uchun qunt qiluvchi, bilimdon, dono, san'atkor va hunar egasi bo'lgan olijanob kishilar qilib tasvirlashi ham bejiz emas edi.

Navoiy murabbiylar, mudarrislar oldiga zo'r talablar qo'yar edi, ularning sof ko'ngilli, vijdonli va bilimdon hamda mohir bo'lishini talab qilar edi; shuningdek, talabalarning ham o'z murabbiylarini yaxshi hurmat qilishlarini istar edi. Murabbiylarning xizmatlari talabalarning esidan chiqmasligini uqtirar edi. Bu haqda Navoiy shunday deydi:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak oson emas haqqin ado ming ganj ila.

Navoiy xalqning bilimli bo'lishini orzu qildi. Ilm-fanni xalq orasiga yoyishga juda kata ahamiyat berdi. Xalqning hamma vaqt bilim olishga intilishi, ilm-fandan baxramand bo'lishi zarurligini ta'kidladi. "Bilim va donolik kishini bezatadi", – deydi u. Bilim olish yo'lida uyalish va bilmaganini bilganlardan so'rab, bilib olishga orlanish kishiga juda zarar ekanligini qayta-qayta uqtiradi. "Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim", – degan edi Navoiy.

Bilimsiz kishi hamma vaqt pand yeydi, xijolat bo'ladi, ya'ni kishi ta'lim-tarbiya, ilm-fan o'rganishni malol ko'rmasligi kerak. Aksincha, hayotda, turmushda va kishilar o'rtasida xijolat tortmaslik uchun ilm-fanni qunt bilan o'rganish kerakligini ham alohida ta'kidlaydi:

Kishi ta'limdin topsa malolat,
Topar ilm ahli olinda xijolat.

Ilmning turlari ko'p va hamma ilmlardan baxramand bo'lish foydadan holi emasdur, – deydi. Ilm bilan kishining nomi-nishoni ulug'lanadi, martabasi oshadi,

hurmat-izzatga sazovor bo'ladi, – deb ko'rsatadi u. “Bo'yingga qilich kelganda ham yolg'on gapirma” degan xalq hikmatini keng targ'ib qilgan shoir yolg'on gapirishning yomon oqibatlariga olib kelishini, yolg'onchining burdi, obro'si ketishini uqtirib, kishilarni hech yolg'on gapirmaslikka, hamma vaqt chin so'zlashga undaydi. Yolg'onchi xalqdan, ommadan ajralib, yakkalanib qolishini, xalq ishonchidan mahrum bo'lishini ta'kidlab, bu juda yomon aybdir, – deydi:

Kimsaga yolg'onchi debon qolsa ot,
Bu ot ila chorlasalar ko'p uyot.

Sidq xitobi yana yonmas anga,
CHin desa ham, xalq ishonmas anga.

Navoiy kishilarning so'zi bilan ishi bir bo'lishiga katta ahamiyat berar, kishining tashqi qiyofasiga qarab emas, balki ichki dunyosiga qarab, uning ishiga, fe'l-atvoriga qarab baho berish kerak deb ta'lim berardi. Kishining qalbini bilish qiyinligini ta'kidlagan shoir kishini ko'p sinab ko'rib, keyin o'zingga do'st qil, deydi:

Kimniki inson desang, inson emas,
SHaklda bir, fe'lda yakson emas.

Kimniki aylay deb esang mahraming,
Ko'p sinamay aylamagil hamdaming.

Navoiy yaratgan asarlarning boshidan ohirigacha ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, haqiqat, adolat, va'daga vafo, sodiqlik, insongarchilik, mehnasevarlik, rostgo'ylik, do'stlik, sof ko'ngillik va vatanparvarlik xislatlarni tashviq va targ'ib qildi. Uning har bir misrasi, bayti, g'azali va so'zlaridan chuqur mazmun yaqqol anglashib turadi. Uning ko'pchilik fikrlarining hikmatli so'zga, aforizmga aylanib ketishining boisi ham shunda.

Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlarini rivojlantirish bilan birga, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga ham e'tibor berdi. U o'z «Xamsa»sida, «Mahbub ul-qulub» kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarlarida, shuningdek, «Munojot», «Vaqfiya», «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug'atayn» kabi asarlarida tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifoda etadi. Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib,

ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etdi.

Alisher Navoiyning qarashlariga ko'ra inson tabiatan tabiat bilan bog'liq, shunga ko'ra Xudoning mevasi sanaladi, chunki tabiatning o'zini ham Oллоh yaratgan. SHuning uchun ham u hayotda hamma narsadan yuqori turadi, borliqning, butun mavjudotning bebaho boyligi sanaladi. Inson o'ziga xos xislati, xulqqa, xatti-harakatga ega bo'lganligi uchun ham boshqa mavjudotlardan farq qiladi.

«Bular xush ovoz bilan kuy kuylashdan, yoqimli soz chalishdan tortib, to do'stga vafodorlikkacha, ilmu hunar tog'ni talqon qilishdan, tabiatni o'z manfaatlari xizmatiga qo'yishdan, qahramonlikdan tortib, to halol, o'z kuchi bilan mehnat qilib, shod-xurram yashashlikkacha, insofli, vijdonli bo'lishdan tortib, to qanoatli, sabrli, matonatli bo'lishigacha, ozodlikni, hurlikni sevishdan tortib, to inson uchun zararli bo'lgan yomonlikni nafratga uchratishgacha, shafokatli, shafqatli, adolatli bo'lishdan tortib, to razillarga ayovsiz kurash e'lon qilishgacha, shirin so'zlikdan tortib, to ochiq ko'ngillikkacha, sofdillikkacha...», – namoyon bo'ladi, deydi V.Zohidov.

Alisher Navoiy butun umri davomida yiqqan tajribasi asosida «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») asarini yozadi va ana shu asarida o'zining «Hayrat ul-abror», «Nazm ul-javohir» va boshqa ta'limiy-axloqiy asarlaridagi axloqiy qarashlarini rivojlantiradi. Uning mazkur asarni yozishdan maqsadi muqaddimada bayon etilgan: «Har ko'cha-ko'yda yuguribman va olam ahlidan har xil kishilarga o'zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe'l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarni tajriba qilibman». Alisher Navoiy muqaddimada kishilarni ikki guruhga: «munosib kishilar» va «nomunosib kishilar»ga bo'lib, hayotda inson ana shu nomunosib kishilardan o'zlarini tiyishi va yaxshi-yomonni ajrata olishda «Mahbub ul-qulub»dan foydalanishi zarurligini ta'kidlaydi. Demak, Navoiy hayot tajribalari asosida yoshlarni haqiqiy, komil inson bo'lishga undaydi va hayot saboqlaridan xulosa chiqarishda ushbu asaridan foydalanish mumkin, deydi.

Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo'lgan eng yuksak fazilatlarga ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat ham kiradi. CHunki baxtli hayotga intilgan

ijodkor, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi. SHuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi. Bu fikrni «Nazmul-javohir» asarida:

Kim olim esa nuktada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar, bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki, yo'q ilm anga, ahmaq de oni,
Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni.

«Hayrat ul-abror» dostonining o'n birinchi maqolatida ilmni shunday sharhlaydi: «Ilm sipehrining baland axtarligidakim, jahl tunin yoritmoq uchun «ayn»i quyoshdan va «lom»i oydin va «mim»i kunduzdin nishona aytur. Va jahl shomi tiyra manzarlig'idakim, g'aflat chohini zalolat kechasida zohir qilib, bu kechada shahovatdin fasona aytur. Va olimning bovuji da falokat quyoshdek sarbalandligi va johilning bovuji da ganju mol tufroq aro najandligi». Bunda arab tilida aynning ma'nosi quyosh, lomning ma'nosi esa oy bo'lib, abjad hisobida «o'ttiz»ni bildiradi. Mim esa kunduz ma'nosini bildiradi.

U yaxshi fe'llarga qanoat, sabr, tavoze' va adab, ishq va vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (hilm) kabi xislatlarni kiritib, har birining ta'rifidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida o'z fikrini to'ldiradi. Navoiy asarda mazkur xislatlarga ta'rif berish bilan birga, ularga qarama-qarshi bo'lgan yomon illatlardan qutulish yo'llarini bayon etadi.

Axloqlilikning eng muhim mezoni sanalgan odob haqida fikr yuritar ekan, «Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakotidin umrbod bahramand bo'ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi...» – deb ta'kidlaydi.

Demak, yaxshi xulq asosi odob Navoiy talqinida barcha insoniy xislatlarning boshlanishi sanaladi. Komil insonga xos xislatlar ana shunga bog'liq ravishda beriladi. Zero, haqiqiy insonga xos xislatlar – qanoat, sabr, tavozu', ishq,

vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) xuddi shu odobli kishida tarkib topadi.

Masalan, «qanoat buloqdir, suvi olgan bilan qurimaydi, xazinadir, naqdi sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir, urug'i izzat va shavkat mevasi beradi; daraxtdir, shohi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkazadi», – deb ifodalaydi.

Qanoatni sharaf va izzatning tantanasi desa, davlatli ta'magirni xor va pastkash deb ataydi. SHuning uchun ham yoshlikning qadriga yetish, eng yaxshi xislatlarni o'zida tarkib toptirish, nafs istagidan o'zini tiyishni ulug'laydi, takabburlik, manmanlik, faqat o'z foydasini ko'zlab ish yuritish, yolg'onchilik, nodon va johillik, ikkiyuzlamachilik, ta'magirlik, shoshma-shosharlik, yalqovlik, haromdan hazar qilmaslik kabi illatlarni qoralab, ulardan xalos bo'lish yo'llarini ham bayon etadi.

Uning quyidagi ruboiysi ana shu yomon illatlar insonni ma'naviy o'limga olib borishi mumkinligi haqidagi hukmdan tuyuladi:

Uch fe'l erur kishiga qotil oxir,
Qotillik aro zahri halohil oxir.
Buxl angla birin, birin havo bil oxir,
Qil ujbini ham alarga doxil oxir.

Demak, Alisher Navoiy bir qator ta'limiy-axloqiy asarlarida o'zi orzu etgan insonga xos axloqiy fazilatlar deb qanoat, saxovat, himmat, muruvvat, vafo, to'g'rilik, hilm, rostgo'ylik, tavoze', adab va boshqalarni tushungan, ana shu xislatlar tarkib topgan insonda yomonlik, razillik bo'lmasligi, bunday inson yashagan jamiyat ham ravnaq topishi, barcha xalq baxt-saodatga erishishi mumkin deb hisoblagan.

2.2. Alisher Navoiy – xalqlar do'stligi kuychisi

Alisher Navoiy o'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri, shu bilan birga, jahon adabiyotining buyuk namoyandalaridan biridir. Alisher bolaligidayoq adabiyotga katta qiziqish bilan qarar, bunda oilasining, ya'ni otasining roli katta edi. Uning otasi ma'rifatparvar va shoirtabiat kishi bo'lib, ilm-fan, san'at, adabiyot ahlini qadrlar edi. Qolaversa, Alisherning tog'alari Qobiliiy va G'aribiiy shoir edilar.

Alisher Navoiy o'zbek va fors tillarida bir qancha g'azallar yozdi. U ikki tilda ijod qilgani uchun "zullisonayn" (ikki til egasi) nomi bilan shuhrat qozondi.

Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviiy, Xisrav Dehlaviiy, Abdurahmon Jomiiylar kabi "Xamsa" asarini yozadi. Bu asar besh dostonidan iborat bo'lib, biz "Saddi Iskandariiy" dostoni xususida fikr yuritmoqchimiz.

Tarixda shunday shaxslar bo'ladiki, ular nafaqat bir xalq ijodkori sifatida taniladilar, balki ularni butun dunyo taniydi. Ularning ijodi dunviy ahamiyat kasb etadi. Garchi ular har narsadan oldin o'z elu yurtlarining farzandi va faxri bo'lsalar-da, boshqalarning ham iftixori bo'lish sharafiga muyassar bo'ladilar. Alisher Navoiy ana shunday shaxslardandir. Biz to'xtalayotganimiz "Saddi Iskandariiy" dostonini 1485 yilda yaratdi. Ushbu dostonda ijodkor hayotning turli tomonlari, turli ijtimoiy tabaqa vakillari, shuningdek, tarix, afsonalarni zamonaviy voqea-hodisalarga bog'lab, yorqin bo'yoqlarda shoirona ehtiros bilan tasvirlaydi. "Saddi Iskandariiy" (Iskandar devori) dostoni Navoiy ijtimoiy qarashlarining yorqin ko'zgusidir.

"Saddi Iskandariiy" Navoiy "Xamsa" sidagi eng yirik dostonidir. U 89 bob, 7215 baytdan tashkil topgan. Bu doston boshqa dostonlarga nisbatan hajm jihatidan eng kattasi hisoblanadi. Boshqa xamsanavislar dunyoning katta qismini zabt etgan Aleksandr Makedonskiyni uning prototipi sifatida olib, o'z dostonlarida SHarqqa yurish qilish jarayoni bilan bog'liq rivoyat va afsonalarga asoslagan holda yaratgan bo'lsalar, Navoiy asarida aks ettirilgan Iskandar – bu SHarq afsona va rivoyatlarida keltirilgan Iskandar Zulqarnayn hisoblanadi.

“Saddi Iskandariy” G’arbu SHarqdagi eng mashhur siymolardan jahongir Iskandarga bag’ishlangan bo’lib, “Xamsa” ning yakunlovchi dostonidir. Iskandar tarixiy shaxs bo’lib Aleksandr Makedonskiy (356-323) ning sharqcha nomidir. Bundan ko’rinadiki, Iskandar nomi ostida, odatda, yaqin va O’rta SHarq mamlakatlarida Aleksandr Makedonskiy tasavvur qilingan. Biroq Navoiyning qahramoni bilan tarixiy shaxs Iskandar o’rtasida ayrim o’xshash jihatlar bo’lsa-da, asar qahramoni Iskandar mutlaqo tarixiy Iskandar – Aleksandr Makedonskiy obrazi emas. Iskandar Navoiy orzu qilgan adolatli va ma’rifatparvar, ideal podshohning hayotdagi romantik obrazidir. Navoiyga qadar ijod qilgan xamsanavislar Iskandar obrazini uch rejada:

1. SHoh.
2. Olim.
3. Payg’ambar sifatida talqin qilganlar.

Navoiy Iskandarni shoh va olim sifatida tasvirlaydi hamda xamsanavislardan farqli tarzda shoh va olim obrazini uzviy bog’lab, uning yaxshi fazilatlarini bo’rttirib tasvirlaydi.

Shuningdek, Navoiy bu dostonida Iskandar tarixini tasvirlashni maqsad qilib qo’ymaydi. Balki u bilan bog’liq voqea-hodisalarni, afsona va rivoyatlarni tasvirlashni niyat qiladi. Dostondagi ko’p mamlakatlarni bosib olgan Iskandar u yerlarda tinchlik va osoyishtalik, adolat o’rnatadi. Iskandar o’z yo’lida odamlarga musibat yetkazuvchi vahshiylarni mahv etib, qo’shini bilan Qirvon o’lkasiga keladi. O’lka nihoyatda xarob bo’lib, aholisi odamxo’r ya’juj-ma’jujlardan aziyat chekar edi. U yerdagi odamlarning iltimosiga ko’ra Iskandar Qof tog’ida yashovchi bu vahshiylarning yo’lini to’sib devor qurdiradi. Devor fors tilida “sad” deyiladi. SHuning uchn ham bu devorni Saddi Iskandariy – Iskandar devori deb atashadi. U ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi devordir. Bu devorni qurishda butun dunyo xalqlari, jumladan, movarounnahrlıklar, rumliklar, forslar, xitoylar, hindlar, ruslar, frantsuzlar va boshqalar qatnashadilar. Xalqlar do’stligi va ittifoqligi insoniyatning ashadiy

dushmani bo'lmish ya'juj-ma'jujlarni mahv etadi. Asar qahramoni Iskandar o'zining odilona siyosati bilan xalqlar do'stligini mustahkamlaydi.

Umuman, ushbu asarni o'qish jarayonida kitobxon unda xalqlar do'stligi, insonparvarlik g'oyalari ilgari surilganligi ko'radi. Bu Navoiyning nafaqat ushbu asarida, balki boshqa asarlarida ham kuzatiladi.

“Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.” [1.137]. Milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimizni yosh avlodga yetkazishda buyuk ajdodlarimizning bosib o'tgan yo'llari, ijodiy faoliyatlari alohida ahamiyatga ega. Ana shulardan biri hazrati Alisher Navoiydir.

“O'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy jahon adabiyotining buyuk san'atkorlardandir”. [2.347.] Hazrati Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik “ko'p va xo'p” yozmagan edi. Darhaqiqat, salkam olti yuz yil davomida uning nomi tillardan o'chmadi. U o'z ijodi bilan turkiy xalqlarni “yakqalam” qildi.

Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro feodal urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot rivojiga bag'ishladi. U ulug' donishmand, davlat arbobi, o'zbek adabiy tiliga asos solgan va o'zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan buyuk so'z san'atkori, iste'dodli qomusiy olim bo'lib yetishdi, juda qimmatli asarlar yaratdi, davrining madaniy hayottiga rahbar, ilm-fan, san'at va adabiyot ahllariga homiy, ko'plab shogirdlarga ustoz bo'ldi.

O'zbek nazmini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan Navoiy zullisonayn shoir sifatida fors-tojik tilidagi lirika xazinasiga ham muhim hissa qo'shdi, o'zbek ozarbayjon, turkman, tojik va boshqa xalqlar nazmul javohirining keyingi taraqqiyot bosqichlariga samarali ta'sir etdi. Bu lirik xazina asosini 45

misraga yaqin o'zbek tilidagi she'rlarni o'z ichiga olgan "Xazoyin ul-maoniy", 12 ming misradan ziyod "Devoni Foni", fors-tojik tilidagi 6 falsafiy qasidadan iborat "Sittai zaruriya" hamda yil falsafalariga bag'ishlangan "Fusuli arbaa" qasidalar, dostonlari va boshqalar tashkil etadiki, ularni o'qir ekansiz, Navoiy tom ma'noda sevgi va shodliklarning, haqiqat va adolatning jo'shqin kuychisi ekanligini guvohi bo'lasiz. Bejiz Navoiy:

Odami ersang, demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami, –

demagan. Bu baytning Navoiy keng boy ijodiy merosini o'rganishimiz chog'ida katta ma'nosi borligi, uning o'lmas satrlariga inju misol terilganligidan dalolat berajagining shohidi bo'lamiz.

Shoir "Mahbub ul-qulub" asarida hayotdan olgan tajribalariga, taassurotlariga, o'zining ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy qarashlariga yakun yasash, turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarini tasnif va ta'rif qilib, ularning burchi hamda vazifalarini yoritish, ayrimlarining faoliyati, xatti-harakati va xulq-atvoridagi illatlarni fosh etish, ularni yaxshilikka yo'llash maqsadini qo'yadi. Asarning "Mutrib va mug'anniy" faslida Navoiy musiqa va qo'shiqqa katta e'tibor va baho beradi, turli xil sozlarni ta'riflaydi. Ayni chog'da o'z san'atini pulga sotuvchi san'at ahllarini tanqid qiladi.

Tilni "ko'ngil xazinasining qulfi" va so'zni "shu xazinaning kaliti" deb ta'riflagan Navoiy til odobiga katta e'tibor berib, kishilarni qisqa va mazmunli, o'rinli va mantiqli so'zlashga chaqiradi, sergap, laqma, tiliga ortiqcha erk berganlarni qoralaydi. Darhaqiqat,

Ko'p demak so'zga mag'rurlik,
Ko'p yemak nafsga ma'murlik.

Navoiy va mustaqillik tushunchalari bir-biriga bog'liq. Bizningcha, Navoiyni anglagan inson o'zini anglaydi. Bu esa mustaqillikning muhim omili, ta'bir joiz bo'lsa muazzam binoning poydevoridir. Xalq o'zini anglamay turib, farzandlar Vatan bilan faxrlanishni o'rganmay turib, to'la mustaqillikka erishish mumkin emas.

Mustaqillik sharofati ila Respublikamizdagi ko'plab jamoat tashkilotlariga, ko'chalarga hazrat Navoiy nomi berildi, xiyobonlar tashkil etilib, haykallar o'rnatildi. Turli xil tadbirlar, Navoiyxonlik kechalari o'tkazildi. SHu o'rinda Navoiyxonlik tadbirlari xususida, xo'sh, "Navoiyxonlik" nima o'zi, u qanday bo'lishi kerak? Hozirda Navoiyxonliklar rasmiy majlislardan iborat bo'lmayaptimi, degan savol tug'iladi. Ma'lumki, bunday kechalarda ma'ruzalar qilinadi, g'azallar o'qiladi. Ammo yig'ilganlarning yarmi esnab o'tiradi, qochish payida bo'ladi. SHu bilan tamom! Ammo bu Navoiyxonlikmi?

SHu narsani alohida ta'kidlash joizki, hazrat Navoiy haqida gapirish uchun odamda bilim, ma'naviy huquq bo'lishi kerak. To'planganlar ham Navoiyxonlikka ruhan tayyor bo'lishlari kerak. Ya'ni ular faqat ma'ruza, g'azal eshitgani emas, balki hazrat asarlarini birgalikda tahlil etish uchun ixtiyoriy ravishda to'planishlari, hazratning hech bo'lmasa bitta g'azalini yod bilishlari, ma'no-mag'zini chaqa bilishlari lozim. CHin ma'nodagi Navoiyxonlikni o'tkazish oson emas. Buning uchun adabiyot muallimlari Navoiyni oz bo'lsa-da anglamoqlari, g'azallarini tahlil etmoqlari lozim.

Yana bir masala – Navoiyxonlik faqat tavallud to'ylarida o'tkaziladigan tadbir emas. U beto'xtov davom etishi lozim.

Xo'sh, nima uchun biz xaftada, boringki, bir oyda bir kunni Navoiy kuni deb belgilamaymiz? Agar biz Navoiyning chin vorislari bo'lsak, hazrat ijodini anglashni istasak, shunday qilishimiz kerak. Navoiy ijodidan har bir o'zbek emas, O'zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millat vakillari ham bahramand bo'lmoqlari lozim. Ular ham o'zbekning ulug'ligini his qiladilar. Zero, buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyning faoliyati va ijodiyoti xalq va vatanga, insoniyat va ma'rifatga xizmat qilishning ajoyib bir namunasi.

Navoiy merosi tarixiy-ma'rifiy, shu bilan birga, juda katta ijtimoiy-tarbiyaviy va estetik ahamiyatga egadir.

Quyosh nuri har bir xonadonga kirib borgani, iliqlik, hayot bergani kabi hazrat Navoiy ijodi ham har bir inson yuragiga, ruhiga kirib borar ekan, millatining ma'naviy qadriyatlari hech qachon zavol bilmaydi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi milliy madaniyat tarixini o'rganishni ma'naviyatimizning dolzarb muammolaridan biri sifatida olg'a surdi. Madaniy merosimizning mashhur vakillari Naqshband, Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Bobur, Alisher Navoiy kabi olim, arbob mutafakkirlarning hayoti va faoliyatlari chuqur o'rganila boshlandi. Prezident Islom Karimov boshchiligida hukumatimiz rahbariyati respublikamiz xalqlari tomonidan o'tmishda bunyod etilgan boy madaniy meros va ma'naviy qadriyatlarni har tomonlama va xolisona tadqiq etish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ulardan samarali foydalanish masalasiga e'tibor qaratilmoqda.

XV asr ma'naviyatining buyuk siymosi, g'azal mulkingning sultoni Nizomiddin Mir Alisher Navoiy merosining ijtimoiy-tarixiy va tarbiyaviy qimmati jahon miqyosida o'rganilmoqda. "O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan...biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyotida kamdan-kam topiladi",¹³ – deb ta'kidlaydi Yurtboshimiz I.A.Karimov.

SHuning uchun ham pedagogika sohasida barkamol shaxsning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda Alisher Navoiy qarashlariga murojaat qilish bugungi davr uchun ham ahamiyatlidir. "Mahbub ul-qulub" asari shoir umrining so'nggi yillarida, ya'ni 906 (1500-1501) yilda yozilgan bo'lib, u muallifning butun umri davomida to'plagan tajribasi va xulosalarining mahsulidir.

Navoiyning o'zi ushbu asarning muqaddimasida "...maqsadim shuki, har yo'lda yurdim, olamda bo'lmish har nav' odam odam bilan ko'rishdim, katta-kichikning fe'lu atvorini o'rgandim, yaxshi yomonning xislatlarini tajribadan o'tkazdim, yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahrini totib ko'rdim. Baxil

¹³ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент.: Маънавият, 2009, 47-б.

va pastkashlarning zaxmini, saxovatli kishilarning malhamini ko'nglim darhol sezadigan bo'lib qoldi. SHu jihatdan hamsuhbatlarni va do'st-yoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko'rindiki, toki ularda ham har toifaning xislati haqida bilimlar va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalar bo'lg'ay..."¹⁴.

"Mahbub ul-qulub" asari tuzilishiga ko'ra "Kishilarning ahvoli, fe'l-atvori va gap-so'zlarning ahamiyati haqida"; "Yaxshi fe'llar va yomon xislatlar haqida"; "Turli foydali maslahatlar va maqollar" deb ataluvchi uch qismdan iborat. Asarning ikkinchi qismi ma'naviy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan, bo'lib, 10 bobdan iborat bu tarkibda ijobiy fazilat va salbiy xususiyatlar tahlili berilgan.

Navoiy ijobiy fazilatlar qatoriga sahovat va himmat, olijanoblik (yaxshilik qilish) va mardlik, muruvvat, vafo va hayo, hilm (muloyim tabiatlilik), do'stlik, shirinso'zlilik, ochiq yuzlilik, sabr-qanoatli bo'lish kabilarni kiritadi va odob, axloq haqida o'z aqidalarining isboti, dalili sifatida juda sodda, biroq mazmunli hikoyatlar keltiradi.

"Odob urug'ini ekkan odamning hosili javohir bo'ladi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi. Agar kishi odob va tavoz'e kabi yaxshi xulqqa ega bo'lsa, o'zi ham xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi", -deb ta'kidlaydi Alisher Navoiy va quyidagi baytni yozadi:

Mutakabbir kezibon shahrda xoru mardud,
Mutavoziyni g'aniy ayladi durri maqsud.¹⁵

Baytning mazmuni:

(Takabbur va g'ofil shaharda xor-zor kezadi,
Tavoze'lini esa maqsad gavhari badavlat qiladi.)

Navoiy qayd etgan bu fazilatlar bugungi yosh avlod tarbiyasining mazmunida ham aks etayotganligi barchaga ayon. SHu bois Navoiy orzu qilgan yetuk insonga taalluqli ijobiy sifatlarni ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-mafkuraviy ishlarda e'tiborga olmaslik mumkin emas.

¹⁴ Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. –Тошкент: Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, 3-б.

¹⁵ Ўша ерда, 100-бет.

Adib “Mahbub ul-qulub” asarida odamlarda uchraydigan salbiy illatlarga ham alohida to’xtaladi va ularning zararli oqibatlarini ko’rsatib o’tadi. Uning fikricha, tamagirlik va nokaslik, o’ziga bino qo’yishlik, xudbinlik, takabburlik, qo’pollik, maqtanchoqlik, baxillik, yolg’onchilik, nodonlik, mayxo’rlik va isrofga yo’l qo’yish kabi xususiyatlar insonga yaxshilik keltirmasligini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiyning fikricha: “O’ziga bino qo’ygan odam aqlsizdir; o’ziga zeb bergan beor, satangdir. Boy (aslida) aldanuvchidir. Takabbur la’nati. SHahvoniy nafsga berilgan nafsning qurboni bo’ladi. Bu balolardan nafsni tiyish halokatdan najot topish demakdir”¹⁶. Mana shunday illatlardan asrash uchun Alisher Navoiy bolalarga yoshligidanoq bilim, ma’lumot va tarbiya berishlikni ta’kidlab, o’g’il-qizlarni yoshligidan muallim-tarbiyachiga topshirish lozimligini aytadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning barkamol insonni tarbiyalashga oid fikrlari, qarashlari bugungi pedagogik fikr taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash shunchaki shakllanadigan hodisa emas, uning o’z evoyutsion yo’li mavjud. Yoshlarimizni har tomonlama shakllanishida ma’naviy meros, madaniy va tarixiy boyliklardan o’z o’rnida foydalanishga e’tibor qaratilishi lozim.

¹⁶ Ўша асар, 56-бет.

2.3. Musiqa darslarida Navoiy ijodiy merosini o'rganish.

O'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, adabiy tilimizni kamolot darajasiga olib chiqqan Alisher Navoiy o'zining yuzlab asarlari bilan jahonga ma'lum va mashhurdir.

Mustaqillika erishishimiz dastlabki qadami bo'lgan o'zbek tilining Davlat tili maqomi to'g'risidagi Qonun qabul qilingan 1989 yil bilan 2014 yil oralig'ida sifat jihatidan juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi va bo'lmoqda. Bugungi kunda o'zbek tilini qo'llash, o'rganish va rivojlantirishda umummilliy ijtimoiy zarurat sekin-asta susayib, baynamilal muomala tili yana oldinga chiqib olyapti.

Xususan, Alisher Navoiy – Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida turkiy – o'zbek tiliga Oliy maqom berilib, bu tilni keng yoyish, rag'batlantirish va kamol toptirish umummilliy vazifa sifatida qo'yilganligini, biroq ma'murlar, beklar orasida bunga bepisand munosabatni o'zining shoh asari "Muhakamat-ul-lug'atayn" asarida qo'yidagicha ifodalagan edi.

Sulton Husayn Qoraxoniylar Hulaguxondan boshlangan, Amir Temur davom ettirgan turk tilini Davlat tili maqomida yuritish an'anasini barcha temuriylar davom ettirganliklarini qayd etar ekan, Navoiy o'z do'sti va hukmdori Sulton Husayn Boyqaro "...agarchi ham forsiy demakka qodir va ham turkcha aytmoqqa mohir erdi, ammo asliy tab'iqtizosi va shoe' takallum munosabati adosi bilan turkiy devon tadviniga mayl qildi", [1] deb ko'rsatadi.

Navoiy alohida ta'kidlashicha, Sulton Husayn Boyqaro turk tilini Davlat muomalasi tili, yuksak ilm-fan, san'at tili sifatida qaror toptirish uchun favqulodda sa'i-g'ayrat va g'amho'rlik ko'rsatib maxsus Sulton hukmini chiqarib:

- 1) turk tilini keng joriy qilishga buyurdi;
- 2) turk tili, badiiyati uslub, ya'ni adabiy til me'yorlarini belgilab berdi;
- 3) bu hukmni bajarishni amaliy ta'lim-tarbiya yo'llarini, nishonlarini aniqlab berdi;

4) turkiy til targ'iboti va talqinlarini moddiy ehsonlar berish va ma'naviy tahsinlar bilan rag'batlantirish yo'l-yo'riqlarini berdi.

Biroq, tarix istehzosini qarangki, Sulton Husayn Boyqaro davrida ham, hozir ham yuksak nufuzli ma'murlar, Navoiy tili bilan aytganda beklar va mirzolar Sulton hukmi, Davlat Qonunini to'la ro'yobga chiqmasligiga turli yo'llar bilan erishganlar va erishmoqdalar. Bu haqda Navoiy ikki xil ma'no va talqinga o'rin qoldirmaydigan quyidagi shahodatni keltiradi: "Turk ulusining xush tab' beklari va mirzolari va sohi zehn pok tab'lari va ozodalari andoqlik kerak mashg'ullik asbobin to'za olmadilar va ul nav' tab' natijasi ko'rguza olmadilarki, andin xushgo'ylik umidi tutsa bo'lg'ay, balki bu umidni alarning ro'zg'ori holiga yovutsa bo'lg'ay".

Navoiy turkiy tilning Oliy maqomini ta'minlash, el-ulusni bu ishga safarbar qilish mas'ulyatini ham ijtimoiy-siyosiy, ham ilm-fan, ma'naviy jihatlardan o'z ustiga olgan edilar. Turk tili Oliy maqomining rioya qilinmasligidan deydi Navoiy "tab' ranj va uqubat topar, lozim ko'rundi turk tili sharhida bir necha varaqqa zaboyish bermak va anda Hazrati sulton-salotin muloyamati tab' va mahorati zehnlari sharh emas... Va bu zaifa xoksor ul hazratning qudsiy nafasi posini asrap va vojbul-iz'on hukmlariga itoat va farmonbardorliq qilib, ko'nnglimdan va tilimdan kelgancha va qalamim va ilgimdan quvvat fahm qilgancha" [2], deya Navoiy Sulton hukmini bajarishni o'z zimmasiga olgan edi.

Navoiyning turkiy-o'zbek tili ravnaqi, Oliy Maqomini qaror toptirishdagi bu mislsiz jonfidoliklari Tunyuquq Xoqonimizning "Turk sir haqli yerida egasi yurmasin, o'sha egani yo'q qilaylik" degan dushman qutqusini eshitib, "tun uxlamay, kunduz o'tirmay, qizil qonimizni tugatib, qora terimni yugurtirib, mehnatim, kuchimni berdim" [3], degan fidoyiligi biz uchun muqaddass ibrat bo'lmog'i lozim.

Zeroki, o'z ona tilimizni asrab –avaylash, uning Oliy Maqomini qaror topishiga, kelgusi avlodlarga xizmat qilishiga o'z hissamizni qo'shishga har birimiz mas'ulmiz.

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz

uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliigi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyliigi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz," – degan edilar.

Darhaqiqat, Navoiy asarlari kishilarniyu ruhiy dunyosini nihoyatda boyitadigan, aql-tafakkurini charxlaydigan, yurt tarixi va uning buyuk siymolari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Navoiy asarlari ichida "Mahbub ul-qulub" asari o'zida yosh avlod tarbiyasi uchun zarur bo'lgan fikr va mulohazalarning ifodalanishi bilan alohida o'rin egallaydi. Ushbu asar falsafiy-axloqiy asar hisoblanadi. SHoir unda o'zining axloq va odob to'g'risidagi qarashlarini hikmatli so'zlar va ibratli voqealar tasviri orqali ifodalaydi. SHarq axloq-odobi asosida tarbiya topgan kishining qanday yaxshi fazilatlarga ega bo'lishi lozim-u, qanday salbiy xislat va illatlardan qochish foydali ekani haqida bahs yuritadi. Jamiyat turli toifadagi kishilardan iborat ekan, ular orasida podsho ham, amaldor ham, savdogar ham bor ekan, Navoiy ularning ham qanday yaxshi fazilatlarni o'zida tarbiyalashi lozimligini ko'rsatib beradi.

A.Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining "Tavoze" va odob to'g'risida"gi bobida tavoze" va odob so'zlariga atroflicha to'xtaladi hamda ushbu so'zlar haqidagi o'z qarashlarini bayon etadi. Masalan, "Tavoze" kishiga xalqning muhabbatini jalb qiladi, odamlarni u bilan do'stlashtiradi. Tavoze' do'stlik gulshanida toza gullar ochadi va gulshanda oshnalik va ulfatchilik bazmiga xilma-xil gullar sochadi. Tavoze" takabbur muxolifga muloyimlik va kamtarlik yo'lini ko'rsatadi; gerdaygan

dushman ko'nglida insoniylik zavqini qo'zg'tadi". qayta-qayta ko'rsatilgan tavoze'' hayosiz takabburni uyat chegarasiga tomon yo'llaydi va haddan tashqari insofsiz dushmanni yomonlik qilishdan qaytaradi.

Navoiy odob haqida shunday deydi: Odob kichik yoshlarni kattalar duosiga sazovor etadi. Yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar.

Odob ulug'lar ko'nglida yashlarga mehr uyg'otadi va odobli yoshga bo'lgan muhabbat ko'nglida abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvor odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlik ko'radi.

Odob kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini bekitadi va odamni hazil-mazaxdan, kamsitilishdan saqlaydi. Odob odam tabiatiga insoniylik baxsh etadi va kishi mijoziga odamiylik manzilida orom beradi.

Navoiy tavoze' va odob haqidagi fikrlarini hikoyatlar orqali isbotlab berishga harakat qiladi. Hikoyat mazmuniga ko'ra Xusrav Parvez ov paytida shohlik tojidan porloq gavharni yo'qotib qo'yadi. Yo'qolgan gavharni qidira bohlaydilar. Ittifoqo, Xusrav Parvez ov qilib gavharni tushirib qo'ygan dashtda ikki yo'lovchi shahar tomon ketishayotgan edi. Navoiy ulrnidan birini g'ofil, ikkinchisini ogoh deb ta'riflaydi. Takabbur kishi gavhar qidirayotgan kishilarga salom bermay, takabburlik qilib gerdayib o'tib ketadi, tavoze'' va odobi bilan xalq orasida ulug'langan kishi tavoze'' va odob bilan egilib salom beradi hamda yerda tushib yotgan gavharni topib oladi. Gavharni topib olgan kishi haqida shohga xabar yetkazishadi. SHoh o'z navbatida topib olgan odamga berishi kerak bo'lgan boylikni beradi. Hikoyat so'nggida takabbur kishi shahar hammomiga go'lah bo'lib ishga joylashadi, tavoze' va odobli kishiga esa shoh tashakkurlar izhor qiladi va haddan ziyod ehsonlar bilan mukofotlaydi.

Ko'rinib turibdiki, Hazrat Navoiy asarlari odob-axloq to'g'risidagi insoniy fazilatga boy bo'lib, asarni o'qigan kishini ma'naviy jihatdan boyitadi, ulug'lik sari yo'naltiradi. Navoiy ta'biri bilan aytganda, odob urug'ini ekan odamning hosili javohir bo'ladi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi,

ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi. Agar kishi odob va tavoze' kabi yaxshi xulqqa ega bo'lsa, o'zi ham xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, biz kelgusida umumta'lim maktablarida yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan o'qituvchilar tayyorlar ekanmiz, avvalo o'zimiz Navoiy asarlarini chuqur o'rganishimiz, qolaversa, bo'lg'usi pedagoglarni Navoiy asarlariga bo'lgan mehr-muhabbatlarini yanada oshirishga, ularni ko'p-ko'p va qayta-qayta o'qib chiqishlariga erishmog'imiz va nihoyat ularni Navoiy asrlari bilan qurollantirmog'imiz lozim.

Har bir dars mashg'ulotlari davomida o'quvchilarga Navoiy asarlaridan o'qib berish, ruboiylari mazmun-mohiyati bilan tanishtirib borish, asarlarda olg'a surilgan g'oyalar mazmunini ochib berishga xizmat qilgan hikoyatlar, ulardagi pand-nasihatlar bilan yoshlar ongini to'ldirib borish ayni vaqtda barcha o'qituvchilarning birinchi galdagi vazifasiga aylanmog'i lozim deb o'ylaymiz.

CHun bu gulshanda nishiman qilg'ali qo'ymas xazon,
Gul firoqi savtin, ey bulbul, qilib parvoz tuz.

Bazm aro o'rtar Navoiyni nihon munglug' surud,
Ey mug'anniy, chun nihon rozim bilursen, soz tuz.

So'z mulking sultoni, she'riy nutk go'zalligini namoyon etgan, o'zbek adabiy tili asoschisi Mir Alisher Navoiy musiqa san'ati sirlarini teran idrok eta olgan. Bu hol uning adabiy merosida o'z ifodasini ko'rsatgan. Navoiy g'azaliyotiga nazar solar ekanmiz, uning musiqiy iboralarni zargarona talqin etganligiga guvoh bo'lamiz. Xondamir, Bobur, Vosifiy kabi mualliflar hazrat Alisher Navoiyning musiqadagi ilmiy va amaliy faoliyatini risola bitib, shoirning ko'pgina kuylar ham bastalaganligi, ijrochilik mahorati hamda yosh sozandalarga murabbiy ustoz bo'lgani haqida kimmatli ma'lumotlarni berib o'tganlar. Navoiy g'azaliyotida musiqa san'atining bastakorlik, mumtoz ijrochilik va nazariy tarmoqlari falsafiy ma'noda o'z ifodasini topgan. Navoiy ko'p hollarda bastakorlik nag'masozlik deb atab, mumtoz musiqa namunalaridan ushshok, navo, tarona, cholg'ularidan chang, ijrochilaridan

mug'anniylarni zikr etadi. Musiqa san'atining serma'no iboralarga boyligi, har bir ibora bir necha ma'nolarni anglatishi Navoiy g'azallarida mohirona talqin etilgan. U o'zining musiqa ilmida ham yetuk ekanligini ko'rsatadi. Xondamir "Xulosat ul-axbor"ning Amir Alisher Navoiy tarbiyasi tufayli kamol topgan sozandalar bobida shunday deb yozadi: "Oliy hazrat Amir Alisher musiqa ilmida ham shu qadar mahorat hosil qilgan edilarki, agar muallim us-soniy Abu Nasr Farobiy hayot bo'lganlarida Navoiyga shogirdlik sirg'asini kulog'iga taqib olardi der erdilar". Navoiy qonun va uddan yaxshi ta'lim olgandi. Navoiy asarlarida bastakorlik bilan birga, navosoz, nag'masoz, nag'mapardoz, naqshpardoz, musiqiy janrlardan ovoz, navo, qo'shiq, un, nag'ma, shahnoz, surud, bayot, ohang, o'lan, arg'ushtak, savt, lahn, mumtoz musiqa namunalaridan Ushshoq, Navo, Rost, Isfahon, Iroq, Hijoz, Buzruk, ijrochilardan mug'anniy, mutrib, sozanda, xonanda, navozanda, xushnag'ma, nag'masaro, nag'makash, ilhomsaro, navokash, navha, og'oz, cholg'ulardan tanbur, ud, arg'anun, qonun, nusxa, naqora, chag'ona, sur, setor, surnay kabi ko'hna sozlar nomini keltiriladi. Bu, albatta, Navoiyning qanchalar so'zga boyligi va musiqiy iboralarga mutaffakirona munosabatda bo'lganligidan dalolat beradi. Quyida Navoiyning mug'anniy, soz, navo, navha, og'oz, surud, nag'ma, tarona, nag'masoz, surudnavoz, savt kabi musiqiy atamalarni mohirona qo'llagani va ular nafaqat musiqiy ma'no, balki negizida muayyan xolatni ifodalovchi badiiy, falsafiy mazmun mujassam topganini ko'ramiz:

Ey mug'anniy, chun nihon rozim bilursen, soz tuz,
Tortibon munglig' navo, sozing bila ovoz tuz.

Navha ohangi tuzib, og'oz qil mahzun surud,
Ul surud ichra xazin ko'nglumg'a maxfiy roz tuz.

Tuzma og'oz aylabon Farhodu Majnun qissasin,
Desang el kuysin, mening dardim qilib og'oz tuz.

Navoiy ko'pgina g'azallarining maqta'sini musiqaviy kayfiyatda yakunlaydi. Bunday holat nafaqat mashhur dostonlarda, balki g'azallarda ham mujassam etilganiga guvoh bo'lamiz:

Ey Navoiy, gar lisoni hol eshitmaysan, eshit,

Kim ajab holat bizing sozanda mizrobinda bor.

Bunday hollarni turlicha izoh etish mumkin. Navoiy ayrim hollarda o'z tuyg'ularini navo orqali talqin etishga harakat qilganini, musiqa bu sohada so'zga nisbatan imkoniyatlarga boy ekanligini anglab olish mushkul emas. Navoiyning aynan musiqa ijrosiga daxldor bo'lgani, xususan, uning tanbur chertganligi, ud chalganligi, kuylar bitib, savt bog'langanligi manbalarda tilga olinadi, Navoiyning g'azallaridan birida ham bunga ishora bor:

Xush ulki, bazmda oylar teparda arg'ushtak,
SHoh anda tanbura chalib, Navoiy desa qo'shiq.

Navoiyning ijodiga murojaat etar ekanmiz, uning musiqa san'atiga ixlosi cheksizligi va musiqa ilmidan boxabar ekanligini ko'ramiz. Uning benazir ijodiy merosi har bir zamondoshimizning ma'naviy kamolotida ahamiyatli bo'lishi muqarrardir. G'azal mulkingning sultoni Mir Alisher Navoiy asarlari o'zining sehrli va serjilo ohanglari bilan asrlar davomida avlodlarga meros bo'lib qoladi, uning unutilmas nag'malari esa yuraklarda abadiy yashaydi.

2.4. Tajriba- sinov ishlari

“Nazm va navo” badiiy-musiqiy kechasining stsenariyasi

(“Nazm va navo” badiiy-musiqiy kechasi Namangan shahridagi Yoshlar markazi zalida o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, zal sahnasi kecha mavzuiga oid bezatilgan. Badiiy-musiqiy kecha Namangan davlat universiteti iqtidorli talabalari ishtirokida o‘tkaziladi. Sahna oldiga gullar qo‘yilgan, barcha ishtirokchilar uchun maxsus joy hozirlangan, ya‘ni sozandalar sahnaning o‘ng tarafida, g‘azal o‘qiydigan yoshlar sahnaning chap tarafida, qo‘shiq kuylovchilar esa sahnaning o‘rta qismiga joylanadilar. Alisher Navoiy uchun ham maxsus taxtga o‘xshagan joy tayyorlanadi, uning ustiga qadimiy ruchka (pat), qog‘oz qo‘yib qo‘yiladi. Mikrofonlar asosan sozanda va qo‘shiqchilar uchun moslashtiriladi. Parda ko‘tarilgan paytda Navoiy g‘azali bilan kuylangan qo‘shiqning musiqasi yangraydi. Chetda o‘tirgan talaba qizlar ikki misradan Navoiy baytlarini kuy fonida o‘qishni boshlaydilar. Bayt tugagach, ”Aylagach ” kuyi chalinadi, maqomchi qizlar ishtirokida qo‘shiq ijro etiladi. Qo‘shiq tugagach, davraga 2 boshqaruvchi kirib keladi)

Qiz: *O‘zbekona odat, g‘urur, tavoze,*

Dillarni dillarga bog‘lovchi kalom.

Azizlar, ayturmiz, bugun shubhasiz,

Assalomu alaykum, salom assalom!

Yigit: *Bobolardan qolgan Vatan muqaddas,*

Ezgu duo olgan Vatan muqaddas.

Elga dovrug‘ solgan Vatan muqaddas,

Hamisha sevganim Vatan muqaddas.

Qiz: Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, g‘azal va qo‘shiq shaydolari!
Hazrat Mir Alisher Navoiy tavallud kunlariga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan “Nazm va navo” badiiy-musiqiy kechamizga xush kelibsizlar!

Yigit: Ulug' ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosini o'rganish, ular qoldirgan boy merosni yosh avlod ongiga singdirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri ekanligi hech kimga sir emas.

- Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir Alisher Navoiy musiqa san'atiga benihoya katta hissa qo'shgan, musiqa ilmini chuqur anglab yetgan, yuksak ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan shaxs edi. Uning musiqaviy-estetik qarashlari ko'plab asarlarida aks etgan.

– Hazrat Navoiyning ibratli ijod namunalaridan bahramand bo'lish, insoniyatga qoldirib ketgan bebaho meroslari, ma'naviyat va ma'rifatga oid ta'limotlarini o'rganib borish hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi. Kuchimizga kuch, ishonchimizga ishonch qo'shadi.

– SHunday ekan, Alisher Navoiy tavallud kuniga bag'ishlab o'tkazilayotgan "Nazm va navo" badiiy-musiqiy kechamizni ochiq deb e'lon qilamiz.

So'z o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Mo'minjon Sulaymonovga beriladi, marhamat!

(tabrik tugagach, musiqa yangraydi, sahnaga Navoiy tashrif buyuradi)

Ey, mug'anniy, chun nihon rozim bilursen, soz tuz,

Tortibon munglug' navo sozing bila ovoz tuz.

Bazm aro o'rtar Navoiyni nihon munglug' surud,

Ey mug'anniy, chun nihon rozim bilursen, soz tuz,

(deya ortga, ya'ni o'z joyiga borib o'tiradi, qo'shiqlar ijro etilayotgan vaqtda, xuddi ushbu g'azalni yozayotgandek, harakat qiladi)

Boshlovchi: *Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,*

SHam' ravshanroq bo'lur, torin parishon aylagach.

Ey Navoiy, ishq agar ko'nglingni majruh etmadi,

Bas nedurkim, qon kelur og'zingdan afg'on aylagach.

- Qo'shiq. "Aylagach", Navoiy g'azali, Xolxo'ja To'xtasinov musiqasi, musiqiy ta'lim 2-bosqich talabalari ijro etadi!

Boshlovchi: *Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,*

Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.
Navoiy, anjumani shavq jon aro tuzsang,
Aning bashaqliq o'qin sham'i anjuman qilg'il.

“Ushshoq” Navoiy g'azali, Mulla To'ychi Toshmuxamedov musiqasi, ijro etadi Zafarbek Qodirov.

Boshlovchi: *Ey sarvinoz, gulshani bog'i malohatim,*
V-ey gul'uzori mahvashi sarvi qomatim.
Tokim Navoiy chekdi raqam ishtiyoqi yor,
SHoyadki bo'lg'ay bir kuni elga hikoyatim.

“Ko'cha bog'i-II“, Navoiy g'azali, o'zbek xalq kuyi, ijro etadi U.Roziqov!

Boshlovchi: *Bizing shaydo ko'ngul bechora bo'lmish,*
Malomat dashtida ovora bo'lmish.
Navoiy chorasin ko'p dema so'z kim,
G'amingga chorasizlik chora bo'lmish.

“Bo'lmish” Navoiy g'azali, Orifxon Hotamov musiqasi, ijro etadi musiqiy ta'lim 1-bosqich talabasi Ayubxon Ibragimov!

Boshlovchi: *Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg'a ayt,*
Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt.
Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo
Bulbuli yo'q erkanin shohi suxandonimg'a ayt.

“Ey sabo”, Navoiy g'azali, Doni Zokirov musiqasi, ijro etadi 3-bosqich talabasi Azizbek Qo'chqarov!

Boshlovchi: *Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,*
Ko'zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.
Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'ngling uyin,
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

“Munojot”, Navoiy g'azali, xalq kuyi, ijro etadi 2-bosqich talabasi Zilola To'raboeva. Raqsida Maktuba Sattieva!

Boshlovchi: *Do'stlarim, bir nozanin ishq bu hol etmish meni,*
Zulfi savdosi alif qaddimni dol etmish meni.
Lola gul ruxsori hajr ashkimni ol etmish meni,

*Bir pari paykar g'ami oshufta hol etmish meni,
Elga ahvolim demakdain gungu lol etmish meni.*

“Gul’uzorim”, Navoiy g’azali, Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi, ijro etadi 3-bosqich talabasi Otabek Tursunov!

Boshlovchi: *Kinga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko’rmadim,
Ko’rguzib yuz mehr, ming dardu balosin ko’rmadim.
Ey Navoiy, tavba andin qilmadim shayx oldida,
Kim bu ishda dayr pirining rizosin ko’rmadim.*

“Ko’rmadim”, Navoiy g’azali, Doni Zokirov musiqasi, ijro etadi musiqiy ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi Sardor Bannaev!

Boshlovchi: *Ko’zingga tani notavonim fido,
Ravon baxsh la’ling’a jonim fido.
Navoiydin olding ko’ngil jonni ham,
Senga aylayin dilsitonim fido.*

Farg’ona Toshkent maqomlaridan “Soqiynomai Bayoti Sheroziy”, Navoiy g’azali, ijro etadi maqomchilar dastasi.

- Ma’naviy hayotimizda erishgan dastlabki, eng birinchi va asosiy yutug’imiz shu bo’ldiki, Vatanimizda insoniy qadr-qimmat yuksak maqom kasb etgani holda, xalqimiz sarchashmalariga ega bo’ldik.

- Azaldan ota-bobolarimiz ma’rifatni, madaniyat va san’atni insoniyat taraqqiyotinnig muhim omili sifatida ulug’lab, bu sohalar bilan muntazam shug’ullanib kelganlar.

- SHuningdek, Hazrat Navoiy ham musiqa ilmining rivojiga katta hissa qo’shgani holda hofizlar, musiqa ustalarining yetishib chiqishiga homiylik qilgan. Uning muhabbatni ulug’lovchi g’azallari hamda kishilarni ezgulikka undovchi betakror g’oyalari yosh avlod uchun hamisha muqaddas sanaladi.

- Bugungi o’tkazilgan “Nazm va navo” dasturi orqali Sizning qalbingizga zavqu shavq bag’ishlay olgan bo’lsak, biz nihoyatda baxtiyormiz. Hazrat Navoiyning ohangdor va jozibador g’azallari, ular asosida yaratilgan kuy va qo’shiqlar har bir inson ma’naviyatining yanada yuksak maqomlarga ko’tarilishiga xizmat qilsin.

Barchangizga sog'lik va salomatlik tilab kechamizga yakun yasaymiz, omon bo'linglar!

Izoh: Ushbu stsenariyaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Xulosa

She'r baytlarida ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'ati tanosub deb ataladi.¹

Tanosub ma'naviy-lafziy san'atlardan bo'lib, u shariyatimizda keng qo'llanilib kelgan. Tanosub ba'zan «mutanosib», «muroatu-n-nazir», «talfiq», kabi atamalar bilan yuritilgan. SHarq poetikasi nuktadonlaridan biri Rashiddin Vatvot «Xadoyq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r» asarida tanosub san'atiga shunday ta'rif bergan: «Muroat un-nazir – bu shunday bir san'atdurki, shoir o'z baytida jinsdosh narsalarni, chunonchi, *oy va quyosh, o'q va yoy, qosh va ko'z, gul va lola* va shularga o'xshaganlarni birga jamlab qo'yadi". She'rshunos Atoullloh Mahmud Husayniy «Badoiy'u-s-sanoyi'» asarida shunday deb yozadi: «Ul andoqdirkim, kalomda anga munosib hodisa va nimalarni jam' qilurlar (ammo tazod yo'li birla emas)». SHoir va alloma SHayx Ahmad Taroziy fikricha, «Ul budurkim, she'r ichinda narsalarning rioyatini qilurlarkim, bir-birining naziri bo'lg'ay: *chang va ud va rubob*».²

SHarq mumtoz she'riyatida tanosub san'atining juda ko'plab go'zal namunalari yaratilgan. Jumladan, SHarq mumtoz she'riyatining dahosi Alisher Navoiy ham o'z asarlarida ushbu san'atdan juda keng foydalangan. Tanosub san'ati turli xil mavzu doirasida yuzaga kelishi mumkin. Xususan, Navoiy ijodida yor go'zalligini ta'riflash jarayonida tanosub san'atining ajoyib namunalari yaratilgan. Masalan:

Ko'zing nargis, uzoring gul, qading sarvu soching sunbul,
Buzug' ko'nglum xayolidan bularning turfa bog' o'lmish.³

Mazmuni: *Ko'zing nargis, uzoring gul, qading sarvu soching sunbul kabidir, ularning xayolidan buzilgan ko'nglim ajoyib bir boqqa aylangan.*

¹ Xojiaxmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: «Sharq» nashriyat-matbaaa koncerni Bo'sh ta'xiriya, 1998, 80-bet.

² Tanosub haqida fikrlar kuyida kytobdan olinadi: Boboev T. Adabiyatshunoslik asoslari. – Toshkent: U'zbekiston, 2002, 414-bet.

³ Alisher Navoiy, MAT. Yigirma tomlik. Turginchi tom. – Toshkent: Fan, 1978. Bundan keyingi baytlar ham shu devondan olingan.

Navoiyning ushbu baytida ikki tanosub qatori bor: 1) *ko'z, uzor, qad* va *soch*; 2) *nargis, gul, sarv* va *sunbul*. Baytda birinchi qatordagi so'zlar ikkinchi qatordagi so'zlarga tashbeh qilingan: ko'z – nargiz, yuz – gul, qad – sarv, soch – sunbul. Tanosub san'ati ma'shuqaning jilvagar husni haqidagi fikrning musavvirona tasviriga xizmat qilgan: nargizga o'xshagan ko'zing, gulga o'xshagan yuzing, sarvga o'xshagan qadding, sunbulga o'xshagan sochingning xayoli jam bo'lib, buzilgan ko'nglimni turfa boqqa aylantirdi.

Alisher Navoiy ijodida yorning go'zal husni bilan bog'liq bo'lgan tanosub san'atining ko'plab go'zal namunalari yaratilgan.

Quyoshni bo'lmas, ey gardun, ul oyg'a aylamak tashbih,
Og'iz gar zarra, CHo'lpon ko'z, yangi oy anga qosh o'lsun.

Baytning mazmuni: *Ey falak, quyoshni ul oyga (ma'shuqaga) o'xshatma, agar zarra og'zi, cho'lpon yulduzi ko'zi, yangi oy qoshi bo'lsa ham quyosh ul oy, ya'ni ma'shuqaga teng kelolmaydi.*

Ushbu baytda ma'shuqaning quyoshdan ham chiroyliroq husni ta'riflangani uchun shoir osmon jismlarini bir baytga jamlaydi: *quyosh, zarra, CHo'lpon, yangi oy*. Baytda shunday fikr ifodalangan: ma'shuqaning og'zi zarradan ham kichik, ko'zi CHo'lpon yulduzidan ham ortiq, qoshi yangi oydan ham ingichka, o'zi esa quyoshdan ham nurafshon. SHuning uchun ham quyoshning zarradan og'iz, yulduzdan ko'zi, yangi oydan qoshi bo'lsa ham yorga teng kelolmaydi!

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda yorning tik va chiroyli qomati sarv va shamshod daraxtlariga o'xshatilgan. CHunki sarv ham, shamshod ham tik o'suvchi daraxtdir. Sarv va shamshod bilan bog'liq bo'lgan tanosubni olaylik.

Sarv titrab, yerga qo'ydi yuzni savsan, go'yiyo
Bir nasim esdi chaman sori qading shamshodidin.

Bayt ma'nosi: *Qading shamshodidan chaman sari bir yoqimli shabada esgandek bo'lgan edi, sarv titrab ketdi, savsan esa yuzini yerga qo'ydi.*

Baytdagi *sarv, shamshod, savsan* so'zlari bir yerga jamlanib, ma'shuqa qaddining mislsiz daraja chiroyli ekanligini tasdiqlashga xizmat qilgan.

Bizga ma'lumki, mumtoz adabiyotda yorning go'zal husnu jamoli juda chiroyli, o'ziga xos hayotiy tashbehlar bilan ta'riflangan. O'xshatish jarayonida

foydalanilgan soʻzlar mavzu doirasiga koʻra ajoyib mutanosiblikni vujudga keltirib, oʻquvchi zavqini oshiradi va yuksak badiiylik kasb etadi.

Masalan:

Oraz uzra ayn yangligʻdur uzoring uzra koʻz,
Nargis uzra nuqta yangligʻdur koʻzing ustida xol.

Baytning maʼnosi: *Yuz uzra koʻzing oraz uzra ayn (arabcha harf), koʻzing utidagi hol esa nargis ustidagi nuqta kabidir.* Ushbu baytda yorning koʻzi va koʻz ustiga joylashgan xoli tasvirlangan. Maʼshuqaning chiroyli koʻzlari arab alifbosidagi aynga, koʻz ustidagi xoli esa nargis ustidagi nuqtaga oʻxshatilgan: koʻz oraz soʻzidagi ayn harfi boʻlsa, xol nargis soʻzidagi «nun» harfining nuqtasidir. Baytdagi qoʻllangan *oraz, uzor, koʻz, xol, ayn, nargis, nuqta* soʻzlari maʼno jihatidan bir butunlik hosil qiladi va tanosub sanʼatining yorqin namunasini yuzaga keltiradi.

Alisher Navoiy gʻazallarida bu kabi ajoyib baytlarni koʻplab uchratish mumkin. Masalan:

Sabzavu gul istamon, to voʻsmavu gulgunadin
Qoshni aylab sabzagun, orazni gulfom aylading.

Keltirilgan baytda *qosh – oraz – sabza – gul – oʻsma – gulguna – sabzagun – gulfom* soʻzlari mavzu doirasiga koʻra tanosub hosil qiladi. Bayt maʼnosiga koʻra yor qoshini oʻsmadan sabzagun (yashil), guldand esa yuzini gulfom (qizil) etgan. SHuning uchun oshiq maysa va gulni qidirib yurmaydi. Bu bayt ham yuqoridagi bayt singari hayotiy tashbehga asoslangan va tanosub vositasida chiroyli manzara yuzaga kelgan.

Alisher Navoiy – haqiqiy soʻz sanʼatkori. U badiiy tasvir vositalarining imkoniyatlaridan juda ustalik bilan foydalangan. SHoir ijodida sanʼat darajasiga koʻtarilgan tasviriy vositalardan biri tanosub boʻlib, koʻrib oʻtganimizdek, shoir ijodida tanosub sanʼatining ajoyib namunalari koʻplab uchraydi.

Hamma davrlarda ham oʻqituvchilik kasbi sharaflilik va maʼsuliyyatli, qiyin va murakkab kasb hisoblangan. Jamiyat, fan va madaniyatning rivojlanishi taʼlim va tarbiya jarayonining qay yoʻsinda olib borilishiga bogʻliq. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega boʻlgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, chuqur bilimli yoshlar va barkamol shaxs taqdiriga bogʻliqligini unutmagan

xolda, ushbu muammoni mahoratli, bilimli pedagoglar faoliyatiga tayanib yechish mumkinligini esda tutishimiz lozim. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, shunday ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz”.

“Ta’lim to’g’risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning maqsadi, vazifalari va yo’nalishlarini belgilab berdi. Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo, o’qituvchiga, uning bilimi va kasb mahoratining shakllanganlik darajasiga bog’liq. Chunki o’qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog’li vijdon, aql va pedagogik mahorat bilan bajarishi jamiyat kelajagini ta’minlovchi muhim omilidir. Bu borada mutafakkirlarimiz ma’naviy merosidan foydalanishimiz mashaqqatli vazifani amalga oshirishda go’yo ko’prik vazifasini o’taydi. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim beruvchi muallimlar, mudarrislar, murabbiylarning o’zlari ham bilimli va tarbiyali bo’lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil domlarni tanqid etadi va o’qituvchi ma’lumotli, o’qitish yo’llarni biladigan muallim bo’lishi zarur, deydi. Masalan, “Mahbub ul-qulub” asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularning o’ta qattiqqo’l, johil va ta’magirliklarini: “Maktab tutuvchi gunohsiz yosh bolalarga jafu qiluvchidir. U yosh bolalarni azoblashga rag’batlangan. Ularni kaltaklashga o’rgangan. O’zi rahmsiz, miyasi po’lat va ko’ngli toshdir. G’azabli qoshi chimirilgan, gunohsizlarga achchiqlanishga odatlangandir. Ularning ko’pchiligida ko’ngli qattiqligi va ta’ma kasalligi oshkor va o’zlari aql kamligiga giriftor. Yosh bolalar tabiatidagi qaysarlikni qiynalib rom qiluvchi va kichkinalarning olazarak harakatini do’q bilan tartibga soluvchidir. Agarchi qiliqlari qo’polligi namoyondir, ammo o’zlari yosh bolalar kelishmaganliklarini silliqlashtirishga yirik egovdir”, deb qoralagan edi. Bunday qimmatli pedagogik fikrlar hozirgi kunda ham

ahamiyatlidir. Chunki pedagog shaxsini insonparvarlik yo'nalishiga, pedagogika-psixologiya fanlaridan mukammal bilimga va pedagogik qobiliyatga ega bo'lishi (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan bilib olish) bolalar haqidagi, uning psixologiyasi to'g'risidagi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni egallashi uning pedagoglik faoliyatini to'g'ri olib borishida muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Alisher Navoiy quyidagi "Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi yosh bolani saqlashga ojizlik qiladi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim, bunga nima yetsin" fikri orqali, o'qituvchining mashaqqatli mehnatining og'irligi va murabbiylik haqqini xolisona baholaydi. Agar shogird podshohlikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arzishini quyidagi fikrlari orqali bayon etadi;

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Darhaqiqat, o'z kasbining mohir ustasi, minglab shogirdlarning sevimli ustozlari bugungi kunda ham xalqimiz orasida e'zoz va hurmat bilan tilga olinadi. Davlatimiz rahbari tomonidan jonkuyar, fidoyi o'qituvchilarning mashaqqatli hamda sharaflil mehnatlari munosib baholanmoqda. Yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan boshqa soha vakillari orasida o'qituvchilarning ham borligi, o'qituvchilardan O'zbekiston qahramonlari yetishib chiqayotganligi, ustozlarimizning bugungi kunda o'z ustida mustaqil ishlashlari va kasbiy faoliyatlarini olib borishlari uchun barcha sharoitlar, qulayliklarning mavjudligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Alisher Navoiy madrasa mudarrislarining bilimli, fozil va dono, kamtar, ma'naviy pok bo'lishlarini talab etadi: "mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik bilan dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va ig'vo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa". Bu kabi

qarashlar o'qituvchining hurmatini qanchalik joyiga qo'ysa, unga bo'lgan talabni shuncha oshiradi.

Demak, bugungi kun o'qituvchisidan har doim o'z faoliyatini tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, o'z kasbini sevish, tarbiya ishiga zo'r ma'suliyat tuyg'usi bilan qarash, oxirgi fan yutuqlaridan boxabar bo'lish, darslarni zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tashkil etish, o'quvchilarni chin ma'noda sevish va shaxs sifatida ardoqlay olish talab etiladi.

Zero, o'qituvchilar yuksak kasbiy va shaxsiy fazilatlariga ega bo'lish o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda, kasbiy mahoratlarining oshishida va o'quvchilar tomonidan chin ma'noda "Ustoz" deb atalishlarida muhim tamal toshi vazifasini bajarishini aslo unutmazlik lozim.

Inson uchun eng ulug' tuyg'u, eng oliy xislat Vatan tuyg'usidir. Bu tuyg'u mangu va beg'ubor. U har qanday insonni kindik qoni to'kilgan maskanni e'zozlashga ilhomlantiradi. Har bir inson o'z uyiga ega, yashaydigan uyi, o'rni hayot taqozosi bilan o'zgarishi mumkin. Lekin odam bir umr o'zi tug'ilib o'sgan joyga talpinib, intilib o'tadi. Inson har qanday go'zal va so'lim oromgohda ham zerikadi, o'z uyiga, o'z Vataniga intilib yashaydi. Fikrimizni 2-sinf "O'qish kitobi"da berilgan "Saddi Iskandariy" dostonidan olingan "Hikoyat" ham tasdiqlaydi.

Ushbu dars 2-sinfning 1-choragi, 8-darsda o'tiladigan mavzu bo'lib, darsning maqsadi o'quvchilarda ozodlikni his etish tuyg'usini tarbiyalash, mustaqilligimizning qadriga yetish, hikoyat orqali o'z yurtiga bo'lgan mehrni oshirishdan iborat.

Darsni olib borish jarayonida oldingi darsda uyga berilgan O'zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidovning "O'lka" she'rini yoddan so'rab baholanadi. So'ng quyidagi savol-javoblar orqali o'quvchilarning bilim doirasi mustahkamlanadi:

- Vatan qaerdan boshlanar ekan?
- Tug'ilib o'sgan yerimizni nima uchun ardoqlaymiz? (Bu savol orqali o'quvchilar orasida bahs-munozara uyushtiriladi).

So'ng yangi mavzu – Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidan olingan “Hikoyat” ni o'tilgan mavzuga bog'lagan holda, hikoyat mazmuni asosida ishlangan rasmlar yordamida gapirib berish va hikoyatni o'quvchilarga navbatma-navbat o'qitish, tushunilishi qiyin so'zlarni ajratib, ma'nosini tushuntirish va lug'at daftarlariga yozdirish ishlari bajariladi:

masofa – yo'l

fursat – vaqt

vayrona – buzilib ketgan

xurramlik – xursandlik

O'quvchilarga darsni tushuntirish jarayonida yana bir bor hikoyat atamasi xususida tushuncha berib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi: Hikoyat kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

Hikoyat mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalari haqidagi hikoyatlar ko'proq qiziqtiradi. SHuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoyat bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyatni o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoyat mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoyat mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoyat mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakatlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirishda foydalaniladi.

Hikoyatni o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoyat mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyatni o'rganishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga

ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Yuqoridagilarga amal qilgan holda "Hikoyat" bilan o'quvchilar yaqindan tanishadilar.

Hikoyatda xat tashuvchi bir kaptar bir shohning tuzog'iga tushib, qanot-quyruq'iga ko'p shikast yetadi. SHoh uni qafasga solib qo'yadi. Bir kuni u qafasdan qutulib, shodu xurramlik bilan osmonda uchib, o'z diyori tomon yo'l oladi. Bu qush ozodligidan xursand bo'lib, g'ayrat bilan uchib, bir necha kunlik yo'lni oz fursatda bosib o'tadi. Lekin u o'z makoniga yetib, uyini topa olmaydi. Ammo o'sha atrofni aylanib uchaveradi. Ko'pgina kishilar tomga don sohib, uni tutib olmoqchi bo'ladilar. Kaptar esa bu narsalarga e'tibor bermay, o'z uyini axtarib uchishda davom etadi. Nihoyat o'z vayronasini topib, ehtiyotlik va quvonch bilan qo'nadi¹⁸.

Agar bu hikoyatga e'tibor berilsa, hatto qushga ham birovning hashamdor qasridan o'zining vayrona uyasi afzal ekanligini tushunamiz. Buni esa o'quvchilarga yuqoridagi hikoyatni o'qishga o'rgatish bo'yicha to'xtalganlarimiz orqali tushuntiriladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarni o'z tug'ilib o'sgan ona yurtlariga mehr-muhabbat qo'yishlariga, uni qadrlashlariga olib keladi.

¹⁸ Abdullaeva Q. va boshqalar. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. B. 12-13.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ijtimoiy- siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid: barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
2. SH.M.Mirziyoev. “Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir” Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati IV Qurultoyidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017 yil 6 iyun
- 3.Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1976.

Asosiy adabiyotlar:

1. Saidnosirova Z. Oybegim mening: Xotiralar. – T.: SHarq, 1994.
2. Oybek. Bola Alisher: Qissa. – T.: CHO'lpon, 1995.
- 3.Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida. – T.: O'qituvchi,1972.
- 4.Alisher Navoiy. Nazmul-javohir. Asarlar, 15 tomlik, 15-tom. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1968.
- 5.AlisherNavoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar, 15 tomlik, 13-tom. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1967.
- 5.Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

- 1.Alisher Navoiy. Asarlar. Toshkent., 1967., G'.G'ulom nashriyoti.15 jildlik,130 bet.
2. AlisherZohidiy. Umumbashariy turkiy tsivilizatsiya: muammolar va yechimlar. Toshkent., 1994., 19 bet

3. Hojiahmedov Alisher SHE'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: «SHarq» nashriyot-matbaaa kontserni Bosh tahririyati, 1998, 80-bet.
4. Tanosub haqidagi fikrlar quyidagi kitobdan olindi: Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002, 414-bet.
- ⁵. Alisher Navoiy, MAT. Yigirma tomlik. To'rtinchi tom. – Toshkent: Fan, 1978. Bundan keyingi baytlar ham shu devondan olingan.
6. Abdullaeva Q. va boshqalar. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. B. 12-13.
7. Ravshan Abdurahmonov, Navoiyning musiqiy qarashlari, Namangan, 2016 y

ANNOTATSIYA

Yoshlar tarbiyasida milliy musiqa va adabiyotimizning ahamiyatiga chuqurroq to'xtaladigan bo'lsak, o'zbek xalqining ulug' shoiri Alisher Navoiyning bizgacha yetib kelgan bebaho asarlari va musiqa san'atining adabiyot bilan bog'liq jihatlariga e'tiborimizni qaratmog'imiz lozim. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "...inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi..."¹⁹

¹⁹ Ravshan Abdurahmonov, Navoiyning musiqiy qarashlari, Namangan, 2016 y

**Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti MZ 55 14 - gurux talabasi
Sadriddinov Sardorbekning “Mutafakkir Alisher Navoiyning musiqiy
qarashlari” nomli bitiruv malakaviy ishiga**

ILMIY RAXBAR XULOSASI

Har bir xalqning ma'naviy ravnaqi, eng avvalo, uning umumbashariy madaniyatga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi. Ana shu nuqtai nazardan o'zbek xalqi ham boshqa O'rta Osiyo xalqlari bilan birgalikda jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. O'zbek zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar Imom Ismoil Buxoriy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqalar inson tafakkurini, diniy va dunyoviy fanlarni boyitishda alohida mavqega egadirlar.

O'zbekiston mutaqqillikka erishgach, barcha san'at turlari qatori o'zbek musiqa san'atiga bo'lgan e'tibor davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, Davlat ta'lim standartlarining joriy etilganligi musiqa madaniyati o'qituvchilarining zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Xususan, musiqa madaniyati darslari hamda darsdan tashqari tashkil etiladigan mashg'ulotlarda o'zbek milliy musiqa san'atiga hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning bebaho merosini chuqur o'rganish hamda uni yosh avlod ongida shakllantirish masalasiga keng o'rin berilgan.

SHu o'rinda SHarq xalqlarining ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan, musiqa san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Hazrati Navoiyning g'azallari millatimiz o'tmishiga hurmat uyg'otganini, naqadar buyuk ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini his etamiz. Mutafakkir Navoiyning g'azallari asosida yaratilgan qo'shiqlar ezgulikni, go'zallikni, eng muhimi, muhabbatni tarannum etishi orqali barkamol avlodni har tomonlama tarbiya topishida alohida e'tiborga sazovordir.

Ilmiy raxbar:

T. Ortiqov

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruhsat etildi”
Pedagogika fakulteti dekani
_____ **K. Boymirzayev**

5111100- Musiqa ta'limi

Sadriddinov Sardorbekning

Mavzu: “Mutafakkir Alisher Navoiyning musiqiy qarashlari” mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Himoyaga tavsiya etildi”
Musiqa ta'lim kafedrasini mudiri
_____ prof O. Azizov
“ _____ ” _____ 2018 y

BMI rahbari: **T. Ortiqov**

NAMANGAN – 2018

“Tasdiqlayman”

Fakultet dekani K. Boymirzayev
" ____ " _____ ____, ____yil

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
Pedagogika fakulteti Musiqiy ta'lim kafedrası

Talaba _____ ga
(famiyasi, ismi, sharifi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi _____

"----" ----- 201.... y kafedra yig'ilishida ma'qullangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati _____

3. Bitiruv ishni bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar _____

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati) _____

1. Sxemalar, nota yozuvlari, ko'rgazmalar, rasmlar ro'yxati (nomi aniq ko'rsatilsin) _____

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING BAJARILISHI

Pedagogika fakulteti 5111100-Musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bosqichini bitiruvchisi _____

_____ bitiruv malakaviy ish mavzusi

Ilmiy rahbari: _____

NamDu rektorining ish mavzusi va rahbarining biriktirilishi haqidagi buyrug'i

№ _____ " _____ " _____ y.

Ishning kafedraga topshirilgan vaqti. " _____ " _____ y.

Imzolar: Talaba: _____

Ilmiy rahbar: _____

Kafedra mudiri: _____

Ishning himoyaga taqdim qilish haqida kafedra mudirining qarori:

Kafedra mudiri imzosi: _____ sana _____

Ishning taqrizga yuborilgan vaqti: _____

Taqriz qilingan vaqti: _____

Pedagogika fakulteti dekani imzosi:

Talaba _____

_____ ning

bitiruv malakaviy ish DAKning " _____ " _____ 20__ yildagi yig'ilishda himoyaga tavsiya qilindi.

Pedagogika fakulteti dekani:

K. Boymirzayev

T A Q R I Z

Kursi _____ guruhi _____ 5111100 – *Musiqqa ta'limi yo'nalishi*

F.I.O _____

BMI mavzusi _____

BMI ning dolzarbligi va amaliy ahamiyati _____

BMI ning tuzilishi va tarkibi _____

BMI ning natijalarini natijalarini asoslanganligi _____

BMI ning ko'rsatkichlari _____

Xulosa _____

Taqrizchi: _____

